

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

IV KURS BITIRUVCHISI

Sayidova Shahruxa Sohbovnaning

**“A.Bahodirxon “Shajarai turk” asarining tarixiy-
adabiy ahamiyati”**

mavzusidagi

5220100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek) ta'lim yo`nalishi
bakalavri

ilmiydarajasini olish uchun yozgan

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2019-2020-o`quv yili)

Ilmiy rahbar: Bekova N.J

Rasmiy hakam: O`rayeva D.S

Buxoro-2020

«Tasdiqlayman»

«Ma'qullayman»

Ilmiy rahbar: Bekova N.J

O'zbek adabiyoti

kafedrası mudiri

H.P.Eshonqulov

« » _____ 2019-y.

««» _____ 2019-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Sayidova Shahruza Sohibovnaning "A.Bahodirxon "Shajarai turk" asari tarixiy-adabiy ahamiyati" mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqidailmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtai nazaridan o'rganish	oktabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni itaqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	noyabr		

BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	dekabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	yanvar		
	3. II va III bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ish ning amaliy qismini shakllantirish)	fevral		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqako'chirish	mart		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
BMI ni rasmiy - lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
BMI ni himoya qilish		iyun		

Ilmiy rahbar Bekova N.J.

Buxorodavlat universiteti filologiya fakulteti

O'zbek adabiyotika kafedrasining 8-yig'ilish bayonnomasidan

KO'CHIRMA

24-oktabr, 2019-y.

Qatnashdilar: kafedraning

barcha a'zolari

K U N T A R T I B I

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig'i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra yig'ilishi qaror qiladi:

1. 4- kurs talabasi Sayidova Shahruza Sohibovnaning bitiruv malakaviy ishi «A.Bahodirxon "Shajarai turk" asari tarixiy-adabiy ahamiyati» mavzusida tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Sayidova Shahruza Sohibovnaning malakaviy bitiruv ishiga Bekova N.J ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig'ilish raisi

Sh.N.Axmedova

Yig'ilish kotibi

U.R. To'rayeva

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti

o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi

bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Buxoro sh.

20-aprel, 2020-y.

Qatnashdi: kafedraning

barcha a`zolari

K U N T A R T I B I

4. 4- kurs talabasi Sayidova Shahruza Sohibovnaning “A.Bahodirxon “Shajarai turk” asari tarixiy- adabiy ahamiyati” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasini tinglab.

Kafedra yig`ilishi qaror qiladi:

1. 4-kurs talabasi Sayidova Shahruza Sohibovnaning “A.Bahodirxon “Shajarai turk” asari tarixiy- adabiy ahamiyati” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.
2. Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib, o`qituvchi O`rayeva D.S. tayinlansin.

Yig`ilish raisi H.Eshonqulov
A.Hamidov

Yig`ilish kotibi

MUNDARIJA:

KIRISH.....7-10

I. BOB Xorazm madaniyati tarixida Abulg'ozi Bahodirxonning tutgan o'rni.....10-21

1.1 Abulg'oziBahodirxonningijodiyfaoliyativadabiyotshunoslikdagi amaliy ishlari..... 10-19

1.2 «Shajaraiturk» asariyaratilishiarafasidagitarixiysharoit..... 19-21

II. BOB. «Shajaraiturk» asariningadabiyotshunoslikdatutgano'rni.....21-49

2.1 «Shajaraiturk» asariningyozilishivao'rganilishtarixi.....21-35

2.2 Asarningadabiyotshunoslikdagiahamiyati.....35-41

2.3 «Shajaraiturk» asaribadiiyykompozitsionasarsifatida.....41-48
XULOSA.....48-49

Foydalanilganadabiyotlarro'yxati.....50-54

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston taraqqiyotning yuksak pog'onalariga ko'tarilayotgan bugungi kunda mamlakatimizning nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki ma'naviy hayotida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Uzoq tarixga ega bo'lgan madaniyatimiz va adabiyotimiz boyliklarini tiklash, ularni o'rganish, yanada teranroq tahlil etish adabiyotshunosligimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, «O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmaydi», deb qayta-qayta ta'kidlaydiki, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, adabiyoti, izn puxta o'rganishimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Bu masalada, ya'ni ko'p asrlik davlatimiz tarixini yaratishda uzoq o'tmishimiz, tarixiy tomirlarimiz bo'yicha o'z mustaqil fikrimizga, chuqur ilmiy asosga ega bo'lishimiz shart. «Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas... Bir so'z bilan aytganda, davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixi keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim»¹ — deb uqtirgan edi Islom Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida.

Binobarin, tarixiy mavzularda yaratilgan asarlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh avlodni ona-yurt va Vatanga chuqur muhabbat ruhida tarbiyalashda tarixiy asarlarning o'rni ning o'rni beqiyosdir.

Ma'lumki, adabiyotimiz tarixining barcha bosqichlarida tarixiy mavzularda asar yozish an'ana tusini olgan. Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo» kabi asarlari fikrimizning yorqin dalilidir. Tarix kitoblari

¹ Каримов И.. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. —Тошкент: Ўзбекистон, 1998. —Б.19.

yo'zish XVII-XIX asrlarda ham davom etdi. Biz buni Xorazm adabiy muhiti vakillari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xususan, XVII asrda Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima», asarlari yaratildi². Bu asarlar XVII-XX asr boshlaridagi Xorazm tarixini tasvirlashga, ijtimoiy hayot, tarixiy voqea-hodisalarni bayon etishga bag'ishlangan. Mazkur asarlar faktik materillarga boyligi, voqealarni bayon etish uslubi va boshqa jihatlar bilan alohida ajralib turadi. Bu asarlarning yana bir qimmat shundaki, ularda tarixiy voqealarning bayoni bilan birgalikda madaniy-adabiy hayotga doir xilma-xil qiziqarli ma'lumot va materiallar beriladi. Binobarin, bu asarlar XVII-XX asr boshlari madaniy hayotini, jumladan, adabiy hayotni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida tilga olingan asarlarni o'rganish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlardagi ma'lumot va materiallarni umumlashtirish Xorazm adabiy muhitidagi tarixiy asarlar yo'zish an'anasi xususidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi, yurtimiz tarixini, shu davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot tarzi va mohiyatini teranroq anglashga yordam beradi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida Abulg'oz Bahodirxonning <<Shajarayi turk >> va <<Shajarayi tarokima>> asarlarni o'rganish borasida ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Xususan, V. Abdullaevning «O'zbek adabiyoti tarixi» kitobida, «O'zbek adabiyoti tarixi» 5 jildligining 3-jildida Abulg'oz Bahodirxon hayoti va faoliyati, adabiy merosi, shuningdek, «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» asarlari haqida ma'lumot berilgan³. Shuningdek, Abdullayeva M.D. ning <<Boburnoma>> va <<Shajarayi turk>> ning qiyosiy tipologik tahlili, Xudoynazarov H. ning <<Shajarayi turk >>

² Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Тошкент: 1994. Мухаммадризо Огахий Асарлар. VI жилдлик. V-VI жилдлар. – Тошкент: 1973. Шермухаммад Мунис, Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол-Тошкент: 2010. Баёний. Шажараи Хоразмшохий. – Тошкент: 1994.

³ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 3 жилд. – Тошкент: Фан, 1978.

va uning o'rganilishi, <<Abulg'ozi Bahodirxon tarixchi va adib>>Allayeva N.A.ning <<Abulg'ozi Bahodirxon haqida yana bir so'z>>kabi asarlarda Abulg'ozi Bahodirxonning tarixiy asarlari va ularning ahamiyati xususidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Shuningdek, mavzu doirasida bir necha maqolalar e'lon qilingan. Ularda tarixiy asarlarning adabiy qimmati, til xususiyatlari o'rganilgan. Lekin Xorazm adabiy muhitida yaratilgan tarixiy asarlarni atroflicha o'rganish, ularning matnlarini to'la nashr etish hamda mukammal tadqiqotlar yaratish borasidagi ishlar hali nihoyasiga etgan emas.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Biz mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdik:

- Xorazm adabiy muhitidagi tarixnavislik an'anasi xususida fikr yuritish;
- Abulg'ozi Bahodirxon va uning tarix kitoblari haqida ma'lumot berish;
- Abulg'ozi Bahodirxonning << Shajarayi turk >> asarining adabiyotshunoslikda o'rganilishini umumlashtirish;
- mazkur asarlarning nafaqat tarixiy, balki adabiy manba sifatidagi ahamiyatini ham ochib berish;
- Bu davr tarixiy jarayonlarini ilmiy tadqiq etilishining bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasining rivojlanishi va tarixiy bosqichlardagi o'рни va ahamiyati.
- shu asosda asarning badiiy jihatlari va tarixni bayon qilish an'analari rivoji xususida xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv-malakaviy ishida Abulg'ozi Bahodirxonning << Shajarayi turk >> asarining tarixiy-badiiy ahamiyati xususida fikr yuritilgan. . Xususan, Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asari tahlilga tortilgan. Manbalar asosida ma'lumotlar umumlashtirilgan va xulosalar chiqarilgan. Bu ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv – malakaviy ishi natija va xulosalaridan oliygohlarda «O'zbek adabiyoti tarixi» fani bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, maxsus kurslarda, shuningdek, akademik litsey va kollejlarda adabiyot darslarida foydalanish mumkin.

BMIning nazariy va metodologik asoslari. Tadqiqot olib borishning ilmiy usullari sifatida: tahlil, tizimli yondoshuv, umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka o'tish usulidan foydalaniladi.

Ishning tarkibi. Bitiruv – malakaviy ishi so'z boshi, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. Xorazm madaniyati tarixida Abulg'ozi Bahodirxonning tutgan o'rni.

1.1Abulg'ozi Bahodirxonning ijodiy faoliyati va adabiyotshunoslikda tutgan o'rni

XVIIasrdayashabijodqilganXivaxoniAbulg'oziBahodirxonoliynasab, taxt-tojsohibi, o'z sulolasining shonushuhrati uchun kurasholib borgan, aynichog'daparchalanib ketayotgan xonlikni kuchli markazlashgandavlatga aylanti rish uchun ham qurol bilan, ham qalambilankurasholib borib, nisbiy osoyishtaliko'rnatishdeke zguniyatni amalga oshirishga intilgan feodal hukm dori xamed. Shuningdek, Abulg'ozixon Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, adabiyotining o'tkir bilimdoni, ilm-fanga e'tiqod qo'ygan, nodir me'moriy yodgorliklarning yaratilishida bevosita homiylilik qilgan ma'rifatpar vardavlatar bobiva olimadib hamdir.

Abulg'ozixon 1603 yil 15-avgustda (h. 1014 yil) Urganchda dunyoga kelgan. U Xivaxoni Arab Muhammadxon (hukmronligi 1602-1623)ning to'rtinchi o'g'li edi. Abulg'ozixon tug'ilishidan 40 kun oldin Arab Muhammad Ural qozoqlari bilan bo'lgan urushdag'alaba qozongan edi. Shu sababli u o'g'liga Abulg'oziy deb nom beradi. Bundan tashqari uning onasig' oziylaravlodidan bo'lib, naslu-

nasabiChingizxongaboribtaqalgan. Abulg'oziy 6

yoshgakirgandaonasivafotetadi. U 16

yoshgakirgunchaUrganchdaotasiqo'lidatarbiyalanadi.Uo'ziningtavalludihaqida
«Shajarayiturk» asaridashundayyozadi:

«Urganchviloyatindatarixmingtaqio'nto'rtdatopushqanyilivaasadburchivarabi'-ul-
avvaloyiningo'nbeshidadushanbakunioftobbirlanbarobartulu' qilibmiz»⁴.

Arab Muhammadxonning Asfandiyorxon, Habash sulton, Elbars sulton, Abulg'oziyxon, Sharif Muhammad sulton, Xorazmshoh sulton, Avg'on sulton nomli yetti o'g'li bo'lgan. Mazkur yetti o'g'il Arab Muhammadxonning bir necha xotinidan dunyoga kelgan farzandlari edilar. Abulg'oziyning yozishicha: «Asfandiyorxonning onasi o'z jamoatimizdan erdi. Habash va Elbarsning onasi Nayman qizi bo'lib, bir onadin erdi. Sharif Muhammad sulton birlan Xorazmshoh sulton ikkisining onasi Xoja Mavdud Chishtiy avlodidin erdi. Avg'on sultonning onasi Abulxayrxon avlodindin erdi»⁴.

Abulg'ozi Bahodirxon o'z otasining nomi bilan ataluvchi Arabmuhammadxon madrasasida tahsil oldi. Arabmuhammadxon o'g'lining o'qishi va dunyoviy ishlarni o'rganishiga alohida e'tibor bergan.

Aka va ukalari o'rtasida o'ta zehnli va qobiliyatli bo'lgan Abulg'ozi o'z zamonasining bilimdonlari qo'lida tahsil ko'rgach, tarix faniga ixlos va ishtiyoq qo'yadi. Xalq og'zaki ijodini mehr qo'yib o'rganishi tufayli uning ijodkorligi yoshlikdan ortib boradi. Bularning barchasi uning yirik davlat arbobi, o'z davrining ilg'or siymosi, ijodkori bo'lib yetishuviga yordam bergan omillardir.

Abulg'ozi otasi va aka-ukalari qatori feodal urushlarda bahodirlarcha jang qilgani uchun uni Bahodirxon deb atay boshlaganlar⁵. Abulg'ozixon yoshlikdan turli fanlarni o'rganish, harbiy ta'lim olish bilan mashg'ul bo'ladi.

⁴ Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 167б.

³⁶ Ўша асар, 160б.

⁵ Худойназаров Х. «Шажарайи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: «Ўқитувчи», 1993. – 34б. ³⁹ Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 168б.

O'n olti yoshidan boshlab esa, davlat ishlariga aralasha boshlaydi. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: «... Olti yoshqa yetkanda onamiz haq rahmatiga ketdi. To o'n olti yoshqacha Urganchda ota qo'lida bo'lduk. Andin so'ng otamiz katxudoy qildi. Taqi Urganjning yarmini ulug' og'amiz Xabash sultonga va yarmini bizga berdi. Bir yildan so'ng Xabash va Elbars otli og'alarimiz birlan oramizda nizo bo'ldi. Ul sababdin tura bilmay Xevaqq'a otamiz qatig'a kelduk... Avval bahor erdi. Katga borib olti oy turg'andin so'ng otamiz birlan otlanib, Xabash, Elbars ustiga borduq».

Abulg'ozixon Xiva xonligida og'ir siyosiy vaziyat yuzaga kelgan bir davrda yashadi. U bolalik va o'smirlik yillaridan boshlab uzoq va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi saltanat uchun olib borilgan ayovsiz kurashlarning guvohi bo'lib o'sdi. Ba'zan bu kurashlarning urug' va elatlar o'rtasida fitnachilikka qirgin keltiruvchi dahshatli bosqinlarga aylanib ketganligini ko'rdi va o'zi ham ko'pincha ularda ishtirok etdi.

Abulg'oziy avvalo katta akasi Habash sulton bilan Urganchda hokim bo'lib turadi. Keyinchalik o'rtalarida nizo paydo bo'lgandan so'ng Habash bilan birga Urganchda tura olmagan Abulg'oziy Xivaga otasi Arab Muhammadxon huzuriga keladi. Bu yerga kelgandan keyin Arab Muhammadxon Abulg'oziyini Katga hokim qilib tayinlaydi. Habash va Elbars sultonlar Arabmuhammadxonning qarshiligiga qaramay bir necha marta Eron va Buxoroga hujum uyushtiradilar. Abulg'oziy Katda hokim bo'lib turganda otasi Arab Muhammadxondan o'z askarlari bilan uning huzuriga kelishga farmon oladi. Arab Muhammadxon, Abulg'oziy, Asfandiyor va Sharif Muhammadlar Habash va Elbars ustiga yurish qiladilar.

Yurish haqida «Shajarayi turk» shunday yozadi: «Bizning xon to'p bo'ldilar.

Asfandiyorxonni so'l va faqirni o'ng qilib erdilar. Faqir uch ot yiqilguncha urushtum. Barcha xalqdin so'ng ketdim»⁶. Bu yurishda Arab Muhammadxon yengiladi, qo'lga tushadi va ko'zi ko'r qilinadi. Ming mashaqqatlar bilan suvdan kechib o'tgan Abulg'oziy avvalo Katga va u yerdan Imomqulixon oldiga keladi. Asfandiyor, Sharif Muhammad va Xorazmshohlar Xazorasp qal'asiga kirib bekinadilar. Habash qal'ani 40 kun qamal qiladi va nihoyat sulh tuziladi. Asfandiyorga Makkaga haj uchun Eronga jo'nashga ruhsat etiladi. Abulg'oziyning yozishicha, Imomqulixon saroyida turgan Abulg'oziyga akasi Asfandiyor xat yozib, Habash va Elbarsga qarshi boshlagan kurashda yordamlashishni so'ragan. Ammo Imomqulixon uning borishiga ruxsat bermagan. Abulg'oziy Imomqulixon saroyida ikki yil turadi.

Ma'lum kurashdan so'ng Habash va Elbars ustidan g'alaba qilgan Asfandiyorxon Imomqulixon saroyiga o'z inilari Abulg'oziy va Sharif Muhammadni so'ratib kishi yuboradi. Shundan keyingina Imomqulixon ularga Xorazmga qaytishga ruxsat beradi. So'ngra Abulg'oziy Xivaga qaytadi va Asfandiyor uni Urganchga hokim qilib tayinlaydi. Endi Asfandiyor bilan Abulg'oziy o'rtasida kelishmovchiliklar maydonga kelgan edi. Lekin shu ahvolda bir qancha vaqt Abulg'oziy ukasi Sharif Muhammad bilan Urganchda hokim bo'lib turadilar.

Urganchda turishning ilojini topa olmagan Abulg'oziy Turkiston hokimi Eshimxon huzurida uch oy turadi. So'ngra Abulg'oziy Toshkentga keladi va Toshkentda ikki yil turadi. Shundan keyin Abulg'oziy Imomqulixon oldiga keladi.

Keyinchalik Abulg'oziy Xivaga qaytadi. U Xivaga kelgandan ikki oy o'tgandan keyin Sharif Muhammad Hazoraspga — Asfandiyor huzuriga boradi⁷.

⁶ Ўша асар, 1686.

⁷ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. -Т.: 2002. -Б.26.

Abulg'oziy bilan Asfandiyor va Sharif Muhammad o'rtasida yana kurash boshlanadi. Bir necha bor yurishlardan so'ng Abulg'oziyni yenga olmagan Asfandiyor Abulg'oziyni hiyla bilan qo'lga tushiradi va o'ziga ishonchli bo'lgan 20 kishi bilan uni Eronga Obivardga jo'natadi. Ular Abulg'oziyni olib borib Obivard hokimiga topshiradilar. Obivard hokimi Abulg'oziyni Xurosonning beglar begiga topshiradi. U Abulg'oziyni Iroqqa yuboradi.

Shu vaqtda Shoh Abbos o'lib, nabirasi Shoh Safo taxtga o'ltirgan edi. Abulg'oziy uni Hamadonda ziyorat qiladi. Shoh Safo Abulg'oziyni Isfaxonga yuboradi. Unga u yerda uy-joy tayin qiladi va xarajat uchun yiliga 10000 tanga ajratadi. Abulg'oziy nazorat ostida saqlanadi.

Shunday qilib, Abulg'oziy Isfaxon shahrida 10 yil turadi. So'ngra u yerdan o'z yurtiga qaytishga harakat qiladi. Bir qancha tadbirlar ishlatib, u yerdan chiqib olishga muvaffaq bo'ladi. Bu masala uning «Shajarayi turk» asarida batafsil yoritilgan. Isfaxondan chiqib Bastomga kelganda qo'lga tushishiga sal qoladi. Har xil hiylalar ishlatib, bu mojarodan qutulgan Abulg'oziy o'z hamrohlari bilan Xurosonning Mahin degan qishlog'iga keladi. U yerda bahorgacha turadi.

Bahor bo'lgandan so'ng Abulxon borib, u yerda ikki yil yashaydi. Undan so'ng Manqishloqqa boradi va u yerda bir yil turadi. So'ngra Urganchga keladi. Abulg'oziy (1052) 1642 — 1643 yili Urganchga kelgan edi. U Xorazmga qaytgandan olti oydan so'ng Asfandiyorxon vafot etadi. 1644 -1645 (1054) yili Asfandiyorxon o'lgandan bir yil o'tgandan keyin Amudaryoning dengizga quyay yerida yashayotgan xalq Abulg'oziyni xon qilib ko'taradilar. Bundan ikki yil burun inisi Sharif Muhammad ham vafot etgan edi.

Orolida xon qilib ko'tarilgan Abulg'oziy bir qancha kurashdan so'ng 1644 – 1645-yili Xiva taxtini egallaydi va 1663-1664 yilgacha Xivada xonlik qiladi. Shundan so'ng xonlik taxtini o'g'li Anushaga topshiradi va 1664 yili vafot etadi.

Abulg'ozixon hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik taxtida o'tirdi. Lekin umri ko'proq urushlarda o'tdi: 1646 - 1653 yillari u Tajan, Bomi baurma (Qizil arvotning janubiy-sharqiy tarafida joylashgan manzilgoh), Atrok va Jurjon turkmanlari bilan urush olib bordi, 1655 - 1662 yillari o'lkaga vaqt-vaqti bilan boqin qilib turgan Yoyiq (Ural)lik rus qozoqlari, qalmiqlar va qozoq ko'chmanchilari bilan kurash olib bordi, 1663 - 1664 yillari bir necha marta Buxoro ustiga yurish qiladi.

Abulg'ozixon xonlik taxtiga chiqqach, Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatni yaxshilash maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar tarixnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi⁸. Jumladan, 1657-yilda Buxoro va Karmanaga qilingan omadli yurishdan qaytgach, yurtga katta to'y berdi va xaloyiq oldida o'z o'g'lining xizmatlarini qadrlab, unga tug', lashkar, bayroq va nog'ora hamda Hazoraspni tuhfa etdi. Shuningdek bu g'alaba sharafiga yangi Oqmasjid qurdi. Oqmasjid qadimiy san'at uslubida qurilgan. Bu masjid Polvon Darvoza yonida joylashgan. Oqmasjid pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uning yonida pishiq g'ishtdan qurilgan hammom xarobalari hozirgacha saqlanadi⁹. Anushaxon sharafiga qurilgan bu hammom ham Abulg'ozixon o'z o'g'liga qilgan marhamatlaridan bittasidir. Shuningdek, u umrining oxirida hali o'lmay turib taxtni Anushaxonga topshirdi. Bu ishni Abulg'ozixondan boshqa Xorazmda hukmronlik qilgan hukmdorlar qilishmagan. Shundan keyin xon uzlatga chekinib bir qator tarixiy asarlar yaratdi¹⁰.

Abulg'ozir Bahodirxon ijtimoiy-siyosiy hamda ijodiy faoliyati bilan bugungi yoshlarga yaxshi ma'lum bo'lmasa-da, u ulkan tarixiy shaxsdir.

⁸ Худойназаров Х. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 66.

⁹ Худойназаров Х. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.: 1993. – 216.

¹⁰ G'afforov Sh.S. va b. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. Samarqand: 2011. – 173b.

Sababi – O'rta Osiyoda davlat va madaniyat rivojlanishida yuz bergan qariyb ikki asrlik inqirozdan keyingi uyg'onish Abulg'ozining ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyati bilan boshlanadi. Ma'rifatparvar va bilimdon Amir Temur vujudga keltirgan sharoitda buyuk shoir Alisher Navoiy boshliq ulkan allomalar maydonga kelgani kabi Abulg'ozixonon keyingi davrdagi Xorazmda ham yuksak madaniyat va ilmu irfon tomon rivojlanish ko'zga tashlanadi¹¹. Akademik olim Bo'riboy Ahmedovning so'zi bilan aytganda u «tarixda oliy hukmdor sifatida emas (tarixda jahonni titratgan ne-ne podsholar o'tmadi, lekin allaqachonlar ulardan nom-nishon qolmagan), balki yirik olim sifatida qoldi. Ilmning xosiyatidan shunday bo'ldi u. Darhaqiqat, Abulg'ozixon keng va chuqur ma'lumotli kishi edi»¹². U hukmdor sifatida bekliklar o'rtasidagi o'zaro qirg'in urushlarga xotima beruvchi tadbirlar o'tkazish bilan birga, ijodkor sifatida «Shajarai turk»¹³, «Shajarai tarokima»¹⁴ va «Manofe' ul-inson»⁴⁹ («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy-badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozdi.

Abulg'ozixonning birinchi tarixiy asari «Shajarayi tarokima» deb nomlanib, o'g'uz qabilalarning, xususan turkman xalqining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Abulg'ozini yozilishi haqida asarda batafsil ma'lumot beradi. 1644-yilda, ya'ni Abulg'ozixon hokimiyatni endigina egallagan davrda turkmanlar Mang'ishloq, Bolxon va Tajan daryosi atroflarida yashar edilar.

Abulg'ozixon o'z hokimiyatini mustahkamlash va turkmanlarni o'ziga tobe qilish maqsadida ular ustiga ko'p martalab qo'shin tortdi. Muallifning yozishicha, « Bir karat Xurosonda Durunga taalluq Beurma tegan suvning

¹¹ Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Т.: «Ўзбекистон», 1994. – 116.

¹² Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 2176.

¹³ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фонди, инв.№ 7668.

¹⁴ Шажараи тарокима. Ўша жойда, инв. .Уз 1223. ⁴⁹Манофеъ-ул-инсон. Ўша жойда, инв. № 4017.

yaqosinda bizning birlan saf tortib urushtilar. Avoldin to oxirgacha biz sababli yigirma ming choqlik kishilati o'ldi. Aning ichinda gunohkorlari ham bor erdi va begunohlari ham bor erdi»¹⁵. Abulg'oziy o'z bosqinchilik urushlari tufayli yigima mingdan ortiq turkmanlarning halok bo'lishiga sabab bo'lgani uchun o'zini ular oldida qarzdor deb bilgan, hamda turkmanlar iltimosini bajonidil qabul qilgan. Muallif aytishiga qaraganda, «Shajarayi tarokima» turkman oqsoqollari va ulug' boshliqlarning taklifiga ko'ra oddiy turk kishisi tushunadigan, hatto besh yashar turk o'g'loni ham anglaydigan tilda yozilgan. Asarda Odam ato avlodlari, Muhammad (s.a.v) alayhissalom payg'ambarimizga qadar o'tgan payg'ambarlar eslanadi, Nuh payg'ambarning Xom, Som, Yofas hamda Yofasning o'g'li Turk haqida hikoya qiladi, turk, mo'g'ul xalqlari tarixi so'zlanadi, Qoraxon o'g'li O'g'uzxon faoliyati haqida to'xtaladi, butun o'g'uz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug'larining bir-biri bilan bog'langan nuqtalari, tarixiy-etnogenezini ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Xiva xonligi bilan turkmanlarning siyosiy kurashlari ham eslab o'tilgan. «Shajarayi tarokima» asari Abulg'oziy Bahodirxon taxtga o'tirgandan ancha vaqt o'tgandan so'ng yozilganligi ta'kidlangan. Bu ma'lumotga qaraganda, 1660—1661 yillar orasida ijod qilingan. «Shajarayi tarokima» yozma obidasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlar, turkmanlarni itoat qildirish uchun olib borilgan kurashlar bayon etilgan, o'zbek va turkman xalqlari o'rtasida inoqlik o'rnatilishi ta'kidlangan¹⁶. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958 yili A.N.Kononov (1906 - 1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan¹⁷¹⁸. Mazkur asardan

¹⁵ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи тарокима. Самарқанд: 1995. – 126.

¹⁶ Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. Самарқанд:2005.

¹⁷ Қаранг: Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абульгази-хана // ДАН-В.

¹⁸ . – С. 39-42; Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Гази, хана хивинского. -М.Л., 1958. – С.. 20-27; Собрание, I, 72, №171; Каль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. Т.,1889. – С. 52. – № 801. (г); Туманский А.Г. Абуль-Гази-

dunyo xazinalarida bizga ma'lum yettita nusxasi saqlangan. Ulardan ikkitasi Rossiyada va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Aburayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Abulg'ozixonning ikkinchi asari «Shajarayi turk» nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664 yillarda yozilgan. Unda Xorazm XVI - XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi. «Shajarayi turk» tarixning turli masalalariga (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, etnik va h.) oid e'tiborga molik ma'lumotlarga boy asardir.

Abulg'ozi Bahodirxon faqat tarixiy asarlar yozish bilan cheklanmadi. Tabobatga oid «Manofe ul-inson» (Inson uchun foydali tadbirlar) nomli asar ham ijod etdi. Asar taxminan 1657-yilda yozilgan. Muallif Allohning o'ziga bergan qobiliyatlari qatorida tabobat va tabiblik sirlarini o'rganganligini yozmasada, u insonlarning kasalliklari va ularni davolash usullarini yaxshi bilganligi yaqqol sezilib turadi. Kitob to'rt qism va 21 bobdan iborat. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 4107-raqami bilan saqlanadi. Asarida tibbiyotning 120 ga yaqin soxalarida kasallikni davolash va emlash usulini bayon etgan. Avval turli oddiy dorilar, keyin murakkab dorilar, ularni tayyorlash va qo'llash yo'llari, undan keying qismlarda davolash usullari va davolashga doir mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, asarda muallif o'z salaflarining bu sohaga doir fikrlari haqida bahs yuritgan. Jumladan, revmatizm, teri va asab xastaliklari, umumrtqa pog'onasi, qo'l va oyok bug'imlarida tuz yig'ilishi xastaliklarini davolashda tabiiy kuyosh nuri, maxalliy kum, tuz va suv konlaridan foydalangan. U yurt ozodalik obodonchiligini, xalq sog'ligini saklashni birinchi masala sifatida karagan.

Бохадурхан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи). Шажарайи Тарокима. - Истанбул. 1937; Кононов А.Н. Родословная туркмен. (текст, перевод, комментарии и исследование). М. - Л., 1958. Самойлович А.Н. По поводу издания Н. П. Остроумовым «Светоч ислама» // ЗВОРАО, XVIII. - С. 2-4; Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркмения. Л., 1929. - С. 36. - Сочинения. Т. II. Ч.1. - С. 584-594; МИТТ. II. - С. 28-38.

Abulg'ozixon o'z zamonasining davlat arbobi, atoqli tarixnavisi va olimi edi. Uning quyidagi so'zlarini keltirsak, uning qanday shaxs ekanligini yana ochiqroq tasavvur etamiz. «Bu faqirg'a Xudoyi taolo inoyat qilib ko'b nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohiygarlikning qonuni va yo'sinikim, nechuk o'tlanmoq va yurumak va yovg'a yosoq yasamoq, ko'p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq. Ikkinchi, masnaviyot va qasoyid va g'azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy, forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahdindan to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podshoxdarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam va ziyodin bilmaklik. Bu vaqtda fahmlamaklikda va tarix bilmaklikda faqirdek kishi shoyad Iroqda va Hindustonda bo'lsa bo'lg'ay, yo'q aytsam yolg'on bo'lg'ay. Ammo sipohiyning yo'sunin bilmaklikda, bu choqda musulmon va kofirda biz ko'rib va eshitaturg'on yerlarda va yurtlarda yo'q turar. Yer yuzi keng turur, eshitmagan yerlarimizda bo'lsa ajab ermas". Bu keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Abulg'oziy she'riyatni yaxshi tushunish bilan bir qatorda, arab, fors va turkiy tillarni ham yaxshi bilgan. Tarix ilmidan yaxshi xabardor bo'lgan .

Abulg'oziy yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarlarni tasnif etgan. Abulg'oziyning hayoti va faoliyati haqida gapirar ekanmiz, bu masala yuzasidan, birinchi navbatda, uning mazkur asarlariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Chunki o'zi tasnif etgan asarlarida tarjimai holiga oid anchagina ma'lumotlarni keltiradi. Ayniqsa, «Shajarayi turk» asarida o'z hayotiga va siyosiy faoliyatiga ancha batafsil to'xtab o'tadi. Abulg'oziy haqida biografik ma'lumotlar K.Yusupovning dissertasiya ishida (Abulgazi I Xivinskoye xanstvo v pervoy polovine XVII veka) va A.Yu.Yakubovskiyning «ОчеркипоисторииТуркменскогонародаиТуркменистана VIII — XIX вв. (216 — 233с.) nomli asarida ham keltirilgan».

1.2 «Shajarai turk» asari yaratilishi arafasidagi tarixiy sharoit

Xiva xonligi tarixini o'rganishda Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk»¹⁹, Munis va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol»²⁰, Ogahiyning «Riyoz uddavla»²¹, «Zubdatu-t-tavorix»²¹, «Gulshani davlat»²³, Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy»²⁴, Mulla Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammadning «Dili g'aroyib» kabi asarlari asosiy manbalar hisoblanadi. Bu yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlar o'z mazmuni, keltirilgan ma'lumotlarning ko'pligi va ishonarliligi bilan alohida o'rinni egallaydi. Bu tarixchilar birbirlarining ishlarini davom ettirib, Xiva xonligi hududida XVI asrdan XX asr boshlarigacha yuz bergan voqealarni o'z ichiga oluvchi asarlarni yozib qoldirganlar. Bu asarlarning ko'pchiligi Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asari ta'sirida yozilgan bo'lib, undagi tarixnavislik an'alarini davom ettirdi. Shu ma'noda, Munis va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» asarini «Shajarai turk»ning davomi sifatida qarash mumkin. Bu ikki asar bir butun holda Xiva xonligi tarixini o'rganishda katta muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sha davr Xorazm madaniyati, urf-odati, badiiy tilini o'rganishda asosiy manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

Abulg'ozi o'z davrining iste'dodli adibi sifatida o'zidan avval yashab ijod etgan salaflaridan ibrat va madad olganidek, uning asarlari ham o'zidan keyingi san'atkorlar uchun dasturulamal bo'ldi. Muallif an'analari ayniqsa, Munis va Ogahiyga barakali ta'sir ko'rsatdi. Ular Abulg'ozining tarixnavislik

¹⁹ Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992.

²⁰ Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. Тошкент: «Ўқитувчи», 2010. – 381б. ²¹ Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1978.

²¹ Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1980. ²³ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Т.: «Ўзбекистон», 2009. ²⁴ Баёний. Шажарайи хоразмшоҳий. Тошкент: 1994.

an'analarini qabul qilib, yanada rivojlantirdilar. XIX asrda Shermuhammad Munis tomonidan boshlanib, Muhammadrizo Ogahiy yozib tamomlagan «Firdavs ul-iqbol» shubhasiz Abulg'ozixon asarlarining ta'siri ostida va undan foydalanib yozilgan tarixiy asar bo'ldi. Bu mualliflar o'zlarigacha bo'lgan tarixiy davrni yoritishda ko'p o'rinda Abul'g'ozining asarlariga murojaat qilganlar va asosiy manba sifatida tayanganlar.

Bu davrda Xivada adabiy muhitning kamol topishi va yuksaklikka ko'tarilishida nozikqalb san'atkor —Abulg'ozi Bahodirxon roli juda katta bo'ldi. U Xiva adabiy maktabida o'lmas oqimni vujudga keltirdi va izdoshlariga tuganmas meros qoldirdi²². Ijodkor o'zidan oldin yashab ijod qilgan ijodkorlar asarlari puxta o'rganib, ularni umumlashtirishga qaror qilib, o'zining mashhur <<Shajarayi turk>> asarini yaratadi.

Asarda o'g'uz-turkmanurug'larining kelib chiqishi, ularning nomlari, og'zaki ijod na'munalari, afsona va rivoyatlari Xorazm lahjasida bayon etilgan.

Abulg'ozixon boshlab bergan tarixnavislik maktabini Munis va Ogahiy o'ziga xos oqimga aylantirdi.

Shunday qilib, Abulg'ozixon asarlari bilan o'ziga xos tarzda boshlangan Xiva tarixnavislik maktabi undan keyingi davrlarda yashagan tarixnavislar Munis, Ogahiy va Bayoniylar tomonidan rivojlantirildi. Bu tarixchi olimlar Abulg'ozining ilg'or an'analarini davom ettirib, yangi tarix asarlarini yaratdilar.

II.BOB. «Shajaraiturk» asariningadabiyotshunoslikdatutgano'rni

²² Абдурасулов А. Хива. -Т.: 1997.-Б. 94.

2.1 «Shajarai turk» asarining yozilishi va o'rganilish tarixi

Abulg'ozii qobiliyatli shoir va donishmand muarrix—tarixchi bo'lgan. Abulg'ozining she'riy ijodi ham, uning tarixiy asarlari ham o'z saltanatini mustahkamlash manfaatlariga qaratilgan edi. Lekin, shunga qaramay, uning «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlari Xorazmning, shu bilan birga, turkman va qoraqalpoq xalqlarining, XVI—XVII asrlardagi tarixini o'rganishda muhim manbadir. Xorazmning keyingi asrlardagi tarixini yozgan Munis, Ogahiy va Bayoniylar Abulg'oziga yuqori baho berganlaridek, G.Vamberi va V.Bartold kabi sharqshunoslar ham uning ilmiy faoliyatini yuksak baholaydilar. Masalan, venger sharqshunosi German Vamberi: «Abulg'ozii Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi... jahon aning «Shajarai turk» nomidagi tarixiy asari uchun undan minnatdordur»,— degan edi.

Munis ta'biricha, «Bag'oyat ash'orfahm va tarixdon kishi» bo'lgan Abulg'ozining birinchi tarixiy asari «Shajarai tarokima» bo'lib, u hijriy 1071 yilda (melodiy 1660—1661 yillarda) yozilgandir. Abulg'ozining «Shajarai tarokima» asarining yaratilish sababi haqida yozgan quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir: «Turkmanning mullolari va shayxlari va beklari mening tarixni yaxshi bilurimni eshitib tururlar, taqi bir kun barchalari kelib arz qildilarkim, bizning ichimizda «O'g'uznoma» ko'p turur. Ammo hech yaxshisi yo'q. Borchasi g'alat va birisibirisiga muvofiq emas, har qaysisi bir turluk va bir durust e'tibor qilg'udek tarix bo'lsa erdi, yaxshi bo'lur erdi, deb o'tun qildilar. Ersa onlarning o'tunlarini qabul qildim. Taqi kitobni aytmoqqa rujo“ qilduk. Taqi bu kitobga «Shajarai tarokima» ot qo'yduk... Oncha bilg'onimizni bir-bir etoling, bilmag'onimizga iloj ne»²³.

«Shajarai tarokima» turkman xalqi tarixini o'rganishda muhim bir manba sifatida ahamiyatlidir. Shuning uchun ham akademik V.Bartold bu asarni turkman xalqi tarixiga bag'ishlangan maxsus kitob sifatida ta'riflagan va ayni chog'da undan

²³ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.29.

ehtiyotkorlik bilan foydalanish keraklig'ini ham ta'kidlab o'tgan edi. Chunki «Shajarai tarokima»da tarixiy ma'lumotlar bilan birga, afsona, rivoyat va hikoyatlar ham mavjud bo'lib, ba'zi hollarda tarixiy haqiqat bilan afsona qorishib, aralashib ketgan edi.

Abulg'ozining ikkinchi tarixiy asari «Shajarai turk» bo'lib, muallif uni yozib tugatishga ulgurmay vafot etgan edi. Anusha Muhammad otasi o'limidan keyin «Shajarai turk» asarini yozib tugatishni Mahmud binni Mullo Muhammad Zamon Urganjiyga buyuradi.

Abulg'oz «Shajarai turk» asarida o'z dinastiyasining shajarasini, hukmdorlarning silsilasini tarixiy voqealar va ko'pincha, afsona va rivoyatlar fonida yoritadi. «Shajarai turk» asari to'qqiz bobdan iboratdir. 1—2- bob, sharq tarixchilari an'analariga muvofiq, Odam atodan boshlab, Chingizxongacha bo'lgan voqealar bayoniga; 3—4—5-boblar Chingizxon va uning Chig'atoy, To'li nomli o'g'illari hamda ularning bolalarining Movarounnahr, Mo'g'uliston, Eron va Qashqardagi hukmronchiliklari bayoniga bag'ishlanadi; 7—8- boblarda esa Jo'ji bolalarining Dashti Qipchoqdagi hokimiyati tasvirlanadi. To'qqizinchi bobda XVI asrdan XVII asrning ikkinchi yarmi (60- yillar)ga qadar bo'lgan Xorazm tarixiga doir voqealar naql va rivoyatlarga yaqin bir uslubda hikoya qilinadi. «Shajarai turk»ning 1—8- boblari boshqa kitoblardan yig'ib olib yozilgan bo'lsa ham, uning 9- bobi o'zining originalligi va tarixiy voqealarning bevosita shohidi bo'lmish kishi tomonidan yozilganligi tufayli o'sha davr tarixini o'rganishda muhim manbalardan biridir. Shuning uchun ham Xorazm tarixini yozgan XIX asr mualliflari Munis, Ogahiy va Bayoniy hamda Xorazm va O'rta Osiyo tarixini o'rgangan sharqshunoslar V.Bartold, G.Vamberi, N.Veselovskiy, A.Yakubovskiy, Ya.G'ulomov va boshqalar Abulg'ozining «Shajarai turk» asaridan foydalandilar.

Abulg'oz «Shajarai turk»da o'z ota-bobolarining hukmronligi davridagi tarixiy voqealar biror tarixiy kitobda bitilmaganidan afsuslanadi: «Bizning

otaqalarimizning beparvoliqi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdan bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan otalarimizning ayrilg'on to bizga kelgancha tarixlarini bitmay erdilar»²⁴. Demak, Abulg'ozini o'z sulolasining tarixini yaratmoqchi va shu orqali uni yanada mustahkamlash uchun kurashmoqchi bo'lgan. Binobarin, muallif asarda o'zidan ilgari o'tgan hokimlarga ana shu nuqtai nazardan yondashadi, ularning xulq-atvori, siyosati va xatti-harakatlarini tasvirlab, ba'zilarini maqtaydi va ulardan ibrat olishga chaqiradi (Jaloliddin, Temur Malik, Ali Sulton, Qurbon hoji kabilar), ba'zilarini esa tanqid qiladi, hajv ostiga oladi (Sevinchxon, Berdibek, Habash, Elbors kabilar).

Abulg'ozining «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlariga ular xususida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Munis va Ogahiyning «Firdavs-ul-iqbol»²⁵ asarida S.P.Tolstov «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab»²⁶ nomli kitobida, Ya.G'.G'ulomov «Xorazmning sug'orilish tarixi»²⁷, Bayoniy esa «Shajarai Xorazmshohiy» kitobida nihoyatda yaxshi fikrlar bildirganlar. Shuningdek, P.P.Ivanov va A.K.Borovkovlar «XVI-XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida mulohazalar» nomli asarida, B.V.Lunin «O'rta Osiyo tarixidan ocherklar»²⁸ risolasida, M.I.Yo'ldoshev «Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi»²⁹ asarida, B. V. Bartold «Madaniy hayot tarixi», Q.Munirov «Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari»³⁰, B.A.Ahmedov «Ko'chmanchi o'zbeklar davlati»⁶⁴ kabi asarlarida ham Abulg'ozini Bahodirxonning ijodiga yuqori baho berganlar.

²⁴ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Тошкент: 1994. – Б.11 .

²⁵ Шермухаммад Мунис. Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Т.:2010. – 382б.

²⁶ С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т.:1964. -437б.

²⁷ Я.Ғ.Ғуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т.:1959. -323б.

²⁸ Лунин Б.В. Очерки по истории Средней Азии. М.: 1958.

²⁹ Ёўлдошев М.И. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тузилиши.

³⁰ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. Т.: ЎзФА нашр., 1960. ⁶⁴ Аҳмедов Б. Кўчманчи ўзбеклар давлати.

G'arbiy Yevropada esa asar nemis, ingliz, fransuz tillarida, hatto Amerikada ham tarjima qilinib nashr ettirildi. Yevropa bu asar bilan o'tgan asrning ikkinchi choragida tanishdi. Poltav yaqinidagi g'alabadan so'ng Sibirga jo'natilgan shved ofiserlari Tobolskda Abulg'ozixonning qo'lyozmasi va uning mundariyasi bilan tanishgach bu asar tarjimasi ustida ishlay boshladilar. Bu ilmiy tadqiqotning asosiy tashabbuskori Filipp Ioann Tabbert Shtralenberg edi. Rus tilini yaxshi bilgan buxorolik oxund Abulg'ozixon asarining tarjimasini rus yozuvchisiga bayon qilgan. O'z navbatida shved Shenstrem rus tilidagi tarjimadan foydalanib asarni nemis tiligf tarjima qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu tarjima 1780-yilda "Abulgasi Bahadur Chan'S Geschlecht buchder Mungalischen Chanen, auseiner turkischen Handschrift udersetzt von Dr.D.G.Messerschmid, 1780" Messershmidt tahriri ostida chop etilgan. Asar nemis tiliga tarjima qilinishidan oldin fransuz tilida 1726-yil Bryusselda «Histoire genealogique des Tatars, traduite du manuscrit tartare d'Abulgasi – Bahadur – Chan, et enrichie d'un grand nombre de remarques et tres curieusus sur le veritable estat present de l'Asie septentrionale, aves cartes geographiques necessaries. ParD.» nomi ostida nashr qilingan. Bu nashrga Bendik tomonidan izoh qilingan. Ushbu fransuz tilidagi tarjima o'z navbatida asarning ingliz tilidagi tarjimasi (1780) uchun ham asos bo'lib xizmat qildi. Rus olimi Trediakovskiy asarni fransuz tilidan rus tiliga

«Родословнаяисторияотатарах,

переведеннаянафранцузкийязыксрукописныятатарскойкниги,

сочиненияАбулгачи-Баядур-Хана...

асфранцузкогонаРоссийскойвАкадемиинаук»

(1770)

nomibilanikkitomdanashrqildiriladi.

Rus olimi G.Sablukovning qayd etishicha, asarning barcha tarjimalarini ham ishonchli deb bo'lmaydi. Chunki ularning hech biri biror bir tarixiy muammoni aniq yoritib bera olmaydi. Abulg'ozixon asarining tilini bilgan

olimlar ham bilmaganlari ham asarni qoniqarliroq tarjima qilishga harakat qilganlar. Asar matnidagi iboralarning aniqroq tushuntirilishi hamda tarixiy bilimlarning manbalar asosida to'ldirilish maqsadidan kansler graf N.P.Rumyansev Abulg'ozixon asarining nashri uchun mablag' ajratdi va asar Qozon universiteti tipografiyasida chop etildi³¹.

Vengriya fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, mashhur sharqshunos olim G.Vamberi 1863 yilda Tehrondan chiqib Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i bo'ylab sayohat qiladi. Ana shu sayohat davomida Abulg'ozining «Shajarai turk» kitobini qo'lga kiritadi va u bilan mukammal tanishadi. Kitob sharqshunos olimga kuchli ta'sir etadi. Shu boisdan ham u «Shajarai turk» asariga yuksak baho bergan edi. «O'rta Osiyo bo'ylab sayohat» (1865) nomli kitobida Abulg'ozining ijodi bilan 1870 yillardan boshlab qiziqib kelgan P.N.Demezov 1871-1874 yillar orasida «Shajarai turk»ni fransuz tiliga tarjima qiladi. «Shajarai turk» tarjimasi unga katta shuhrat keltiradi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Abulg'ozixonning «Shajarai turk» asari o'tmishda Sharq tarixchilari, rus va G'arbiy Yevropa sharqshunoslarining e'tiboriga sazovor bo'lgan noyob asarlardan bo'lib kelgan. U qariyb uch asrdan buyon turkiy xalqlar tarixi bo'yicha qimmatli manba sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlarining tarixshunoslik fanida tutgan o'rni va ahamiyati haqida bir qator ilmiy tekshirish ishlari olib borildi. 1938-yilda yaratilgan «XVI—XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida munozaralar» hamda 1958-yilda nashr etilgan «O'rta Osiyo tarixidan ocherklar» nomli kitoblar Abulg'ozining tarixchilik faoliyati to'g'risida ham bahs yuritgan asarlardandir. «Abulg'ozining asarlari yana shuning uchun ham muhimki, mazkur muallifdan ilgari bunday asarlar

³¹ Абуль –Гази –Багадур –Хан. Родословное древо тюрков. Москва –Ташкент – Бишкек: 1996. – 6-9с.

⁶⁶И в а н о в П.П. Очерки по истории Средней Азии. М.: 1958.- 316.

yaratilmagan edi, shuningdek, ular vujudga kelgan va keyingi XVIII—XIX asrlar uchun ham xarakterli bo'lib qolavergan Xiva — turkman munosabatlarini va turkmanlarning Buxoro na Eron bilan o'zaro aloqalarinnn tushunish uchun juda boy material beradi».

«Abulg'ozi Bahodirxon o'zining muarrixligi bilan mo'g'ul, turk tarixchilari orasida shuhrat qozonganva shu bilan bir vaqtda Xiva hukmroni (1643-1663) bo'lib, uning asarlari Rossiya va chet el tillarida ham tarjima qilingandir»³²,— deb yozadi olim A.Semenov. Ayniqsa, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston xalqlari tarixini yorituvchi tarixshunoslar Abulg'oziy asarlariga tayanch manbai sifatida murojaat qilganlar³³.

Abulg'ozi Bahodirxonning faoliyati va tarixiy merosi K.Yusupov tomonidan alohida ilmiy tadqiqot obyekti qilib olingan. U 1950-yilda «XVII asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Abulg'ozi» mavzuida nomzodlik ishini yozib, himoya qildi.

Shuningdek, akademik Ya.G'ulomov «Xorazmning sug'orilish tarixi» nomli monografiyasini yaratishda Abulg'ozi asarlariga ko'p murojaat qiladi. «Yangi Urganch barpo etish, Urganch kanalini qurish, Gurlandan shimolda Vazir istehkomini solish kabi tadbirlar xon Abulg'ozi davrida tugatiladi. Shunday qilib, uning davrida chap qirg'oq Xorazmning janubiy yerlarini ikkinchi marta o'zlashtirish boshlangan. Xorazmning bu ma'rifatli hukmroni o'z ota-bobolarining ko'chmanchilik odatlaridan voz kechib, shahar va dehqonchilik vohasining madaniyatini o'zlashtirdi. G'ozobod kanali va undagi istehkom (G'ozovot) ham Abulg'ozi nomi bilan bog'langandir»³⁴.

³² С е м е н о в А. А. Собрание Восточных рукописей ,том I. Т.: 1952, 72- б.

³³ Худойназаров Х. «Шажараи турк» ва унинг ўрганилиши. Т.:1993. -86.

³⁴ Г у л о м о в Я. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. Т.: 1959. — 303б. ⁷⁰

ЙўлдошевМ.И. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тузилиши. Т.:1959. - 81б.

Akademik M.I.Yo'ldoshev Xorazmdagi urug'larning tarkibi va tuzilishini o'rganishda Abulg'ozixonning tadbirkorligini bayon etib: «Abulg'ozixon tomonidan ko'rilgan tadbirlar to'g'risida Shermuhammad Munis asarida keltirilgan ma'lumotlar ham urug'larning tarkibi va tuzilishini o'rganish uchun diqqatga sazovordir»,— degan edi.

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab Abulg'ozini asarlari tilshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmokda. Bir qancha atoqli turkshunoslar o'zbek adabiy tili tarixiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy ishlarida Abulg'ozini asarlaridan unumli foydalanganlar.

1957-yilning 4—11 iyun kunlarida Toshkentda o'tkazilgan Butunittifoq sharqshunoslarining birinchi ilmiy-nazariy konferensiyasida «Xivalik Abulg'ozixon asarlari — o'zbek adabiyoti va tilining yodgorligi sifatida» degan mavzuda ma'ruza qilingan. Ma'ruzada Abulg'ozixon adabiy merosini to'plash, tizimlashtirish va ular ustida har tomonlama, chuqur ilmiytadqiqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor berildi. 1958 yilda esa, A.N.Kononov tomonidan Abulg'ozining «Shajarai tarokima» asari rus tiliga tarjima qilinib, tanqidiy matni nashr etildi. Bu asarga tarjimon qisqacha so'z boshi yozgan.

A.M.Shcherbakning 1959-yilda Moskvadagi Sharq adabiyoti nashriyotida «O'g'uznoma va muhabbatnoma» nomli kitobi bosilib chiqadi. Bu kitob qadimgi uyg'ur va eski o'zbek yozuvlari yodgorliklariga bag'ishlangan bo'lib, unda O'g'uznoma munosabati bilan Abulg'ozining «Shajarai turk» asariga ham anchagina o'rin ajratilgan. Bu ikki asar tadqiqotchi tomonidan taqqoslanadi va ulardan ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi. A.M.Shcherbak O'g'uzxonning afsonaviy tarixini yorituvchi qo'lyozmalarning turli xil variantlarni bir- biriga qiyoslab ko'rib, shular orasidagi eng ko'p tarqalgani, ahamiyatlisi va qadimgisi Abulg'ozining «Shajarai turk»da

keltirilgan varianti, degan xulosaga keladi. U uyg'ur varianti bilan «Shajarai turk»dagi ayrim detallarni, ya'ni yoy va oltin o'qlarni qo'llash o'rinlarini qiyoslash orqali ham Abulg'ozining qo'lida bizgacha yetib kelmagan «O'g'uznoma»ning qadimiyroq nusxasi bo'lgan, deb hukm chiqaradi. Ba'zi bir tarixchilarning Abulg'ozixon O'g'uzxon haqidagi dalillarni Rashididdinning «Jome at-tavorix» asaridan olgan degan bir tomonlama fikrlariga qarshi chiqib, olim bunday deb yozadi: «Umuman, Abulg'ozining qo'lida O'g'uz haqida bizgacha yetib kelmagan ishonchli, qadimiy nusxaning bo'lishi haqiqatdir... Rashididdinning «Jome attavorix»idan o'zlashtirilgan bir qancha faktlarni Abulg'ozini Eronda bo'lgan vaqtida boshqa fors yozuvchilarining tarixiy xronikalaridan ham o'qib o'rgangan. Darvoqe, Rizo Nurning «Abulg'ozini O'g'uz haqidagi afsonani butunicha Rashididdindan O'zlashtirgan»-degan fikri asosli emas. Abulg'ozining O'g'uz haqidagi bayoniga va umuman «Shajarai turk»ka til nuqtai nazaridan turli xil belgilarning aralash ishlatilishi xarakterli xususiyatdir. G'arbiy va janubiy til qatlamlarining mavjudligi hamda muallifning ijtimoiy kelib chiqishi uning Xiva shevasiga yaqinligidan dalolat beradi.

«Ug'uznoma va muhabbatnoma» nomli kitobda «Ug'uznoma variantlari», «O'g'uznomaning mazmuni haqida», «Afsonaning tili va yozilgan joyi», «Afsonaning tili va qadimgi o'zbek qarluq-uyg'ur tillarining o'zaro aloqadorlik muammosi» nomli bo'limlarda ham Abulg'ozining «Shajarai turk» asari tiliga oid qimmatli mulohazalar bayon etilgan.

Taniqli turkshunos S.I.Ivanov Abulg'ozixonning «Shajarai turk» asari bo'yicha ko'p yillar davomida tadqiqot ishi olib borib, samarali mehnatining mahsuli sifatida «Abulg'ozixonning «Shajarai turk» asari («Rodoslovnoye drevo tyurok» Abulgazixana») nomli monografiyasini yozdi. Monografiya 1969 yilda Toshkentda nashr etilgan. Tilshunos olim

1970 yilda «Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida fe'l va nom» mavzuida doktorlik dissertasiyasini yoqladi.

«Shajarai turk» haqidagi monografiyada asar tilining grammatik qurilishi hozirgi zamon tilshunoslik fanining yutuqlari hisobga olingan holda yangicha metod asosida tahlil qilingan. Ko'rinib turibdiki, tilshunosligimizda ham tarixshunosligimizdagidek, Abulg'ozining «Shajarai turk» asari har tomonlama va keng o'rganilmoqda. Biroq, adabiyotshunosligimizda bu yodgorlik keng va atroflicha o'rganilgani, uning badiiy qimmati yoritilgani hamda, adabiyot darsliklarida badiiy nasrning namunasi sifatida joy olgani yo'q. Zahiriddin Muxammad Boburning «Boburnoma»si esa 30- yillardan boshlab olimlarimiz tomonidai abadiyotshunoslik nuqtai nazaridan keng o'rganila boshlandi. Bir qator ilmiy nazariy ishlarda «Boburnoma»ning o'zbek klassik adabiyotida tutgan o'zni yetarli tahlil etilgan. «Lekin ana shu tipdagi asar bo'lgan Abulg'ozining «Shajarai turk» asari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganilgani yo'q. Vaholanki, Vengriya Fanlar Akademiyasi a'zosi A.G.Vamberi «Abulg'ozining ko'pchilik ishlari Boburni xotiraga tushiradi, jahon uning «Shajarai turk»i uchun minnatdordir»³⁵ degan edi. Shuningdek, adabiyotshunosligimizda hozirgacha «Shajarai turk»ni badiiy nasrimizning namunasi sifatida tadqiq etib, Abulg'ozi va uning bu asarining o'zbek adabiyotida tutgan o'zni belgilangani yo'q.

Ayni chog'da, 40-yillarda «Shajarai turk» ni o'rganishga kirishgan, «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»ni urushgacha tayyorlab nashriyotga topshirgan adabiyotshunos Olim Sharofiddinov (urushda halok bo'lgan) 1945 yilda nashr etilgan «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»ning ikkinchi kitobida «Shajarai turk» kitobi haqida qisqacha ma'lumot va undan ayrim namunalar berib: «Abdulg'ozi Bahodirxon binni Arabmuhammad o'zbek

³⁵ Вамбери Г.А. История Бухары или Моварауннахра. М.: 1964. – 115б. ⁷² Ўзбек адабиёти тарихи. I жилд. Т.: 1988, 531- бет.

xonlari ichida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug'»,— deb adibga juda to'g'ri baho beradi. A.P.Abrajeyev 1944-yilda, «Abulg'oz Bahodirxon «Shajarai turk» asarining adabiy ahamiyati» mavzuida nomzodlik dissertasiyasini yozdi va himoya qildi. A.P.Abrajeyev o'z tadqiqotida birinchi bo'lib «Shajarai turk»ning adabiy ahamiyatini o'rganishga kirishdi, asarning qurilishi, unga kiritilgai qo'shimcha epizodlar, ishtnrok etuvchilar ta'rifi, voqealar tasviridagi badiiylilik, til va uslubi hamda she'rlarning badiiy qimmatini yoritishga intildi va qisman muvaffaqiyatlarga erishdi. Tadqiqotchi Abulg'oz siymosini asarning bosh qahramoni, xuddi badiiy obraz sifatida talqin etishga berilib ketadi. Lekin «Shajarai turk»ning kompozision tuzilishi, badiiy qimmati, turli-tuman badiiy tasvir vositalari, peyzaj, portret tasviri, xalq urf- odatlari, folklor unsurlari kabi juda ko'plab jihatlarini mukammal tadqiq etmaydi.

Mazkur asarni o'rganish borasida keyingi yillarda ham ayrim ishlar qilindi. M.Yunusovning «XIX asr shoiri Komil Xorazmiy ijodiyoti» mavzuida yoqlagan iomzodlik dissertasiyasida, V.A.Abdullayevning «XVII—XVIII asrlarda Xorazm o'zbek adabiyoti» mavzuida yoqlagan doktorlik dissertasiyasida va H.Ko'ro'g'lining 1969-yilda Moskvada «O'g'uzlarning qahramonlik eposi» degan mavzuda yoqlagan doktorlik dissertasiyasida ham Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» nomli asarlari tayanch manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. E.Rustamov ham o'zining «XV asrning birinchi yarmida o'zbek she'riyatiga bag'ishlangan monografiyasida o'q va yoy ta'rifi, tavsifida boshqa manbalar qatori Abulg'ozining «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» asarlariga murojaat etgan.

Oltmishinchi yillarga kelib, oliy o'quv yurtlari uchun o'zbek adabiyoti tarixidan darsliklar yaratilishi munosabati bilan Abulg'oz Bahodirxon faoliyati va ijodi oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan «O'zbek adabiyoti tarixi»

darsligining ikkinchi kitobida muallif V.A.Abdullayev Abulg'ozi faoliyatiga «XVII asr tarix asarlari va tazkiralar» bo'limida birmuncha o'rin ajratgan³⁶. Kitobxonlar, talabalar darslik orqali Abulg'ozi va uning merosining adabiy qimmatini haqida ham ma'lum darajada tasavvur hosil qiladilar.

«Shajarai turk» tarixiy manba sifatida ham, badiiy-adabiy, siyosiy yodgorlik sifatida ham Abulg'ozi ijodida mumtoz o'rin tutadi va o'zbek adabiy prozasining yetakchi xususiyatlarini o'zida ifoda etadi. «Shajarai turk»da XVI-XVII asr Xorazm tarixini tasvirlovchi tarixiy voqealar mavjud. «Shajarai turk»da esdalik tarzida bayon qilingan nasriy parchalar, rivoyatlar hamda, muallifning o'z sarguzashtlari va azob-uqubatlari shu qadar jonli aks ettirilganki, u badiiy asarday o'qiladi. Abulg'ozi asarlarining turkiy xalqlar tarixiga, Xorazm tarixiga oid ma'lumotlari muhim ahamiyatga molikdir. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi bilan yaxshi tanish bo'lgan Abulg'ozi mazkur asarlarida ko'plab afsona va rivoyatlarni ham keltiradi.

Abulg'ozining yoshlik yillari ziddiyatlarga to'la murakkab sharoitga to'g'ri keldi. XVII asrning birinchi yarmidan boshlab, Xorazm o'zbek va turkman feodallari o'rtasida yer uchun, suv uchun kurash maydoni bo'lib qolganligini Abulgozi o'z ko'zi bilan ko'rdi, ana shu tarixiy voqealarning ishtirokchisi bo'ldi. Katta akasi Asfandiyorxon bilan birgalikda, Abulgozi ham toj-taxtni egallash uchun kurashdi.

Abulgozi asarlarida o'zi yashagan davr, feodalizm davridagi ziddiyatlar va ularga qarshi fikrlar xolis turib yozilganligi, hukmron sifatida uning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirishga intilganligi Abulgozining o'z xalqi oldidagi xizmatlaridan dalolat beradi. Abulg'ozi izdan chiqqan savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yishga, chet ellar bilan madaniy aloqaga ham e'tibor berdi. U o'zining elchisi Davlatmand orqali rus

³⁶ Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент, 1964, 14- бет.

podshosita Rossiya bilan Xiva o'rtasida savdo munosabatlarini mustahkamlashni va ikki o'rtada savdo munosabatlari o'rnatishni taklif qildi.

Abulg'ozini Bahodirxon Xiva va Hindiston davlatlari o'rtasida diplomatik va savdo munosabatlarini mustahkamlash uchun Shohbobo va Shohjonlarni elchi qilib Hindistonga yuboradi. Abulgozi 1648 yilda Eron shohiga elchi yuborgach, ular o'rtasida ham savdo munosabatlari yaxshilanadi³⁷.

Abulg'ozining asarni yaratishidan asl maqsadi Chingizxon avlodining tarixini yaratish emas, balki o'zidan oldin o'tgan ota-bobolarining Xorazmda hukmronlik qilgan davrlari tarixini, ya'ni o'z ajdodlarining beparvoligi tufayli yozilmay qolgan tarixni yozib, avlodlarga qoldirish edi: «Ammo bizning otaaqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufligi, bu ikki sababdin bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Shayboniy Abdullaxon II (1583-1598 yy.)) otalari (Abulxayrxon (1528-1568 yy.)) birlan bizning otalarimizning (Shayboniy Yodgorxon (XV asr)) ayrilgan yeridan to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, hech munosib kishi topmaduk, zarur bo'ldi (va) ul sababdin o'zimiz aytduk»³⁸. «Shajarai turk» asarini muallif 1663-1664 yillar davomida yozgan. Asar Xorazm tarixining XVIXVII asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy siyosiy tarixini bayon etishda nodir manbadir. Ammo Abulg'ozixon asarni yakuniga yetkaza olmay olamdan ko'z yumadi. Asarni uning o'g'li Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn Mulla Urganjiy degan ulamo yakuniga yetkazadi. Muallif asarni yozish jarayonida xastalanganligiga qaramay, uni davom ettirishga ahd qiladi: «Biz tarixni mo'g'ulda, o'zbek-da o'tgan yaxshi podshohlar va kengashli biylarning aslini va qilg'an ishlarini va aytg'an so'zlarini barchasini bir-bir aytib ulug' kitob qilmoq ko'nglimizda bor edi, aytayin teb yurugan vaqtda xasta bo'ldum. Xastam uzoqg'a tortdi.

³⁷ Худойназаров Ҳ. Абулғози Баходирхон тарихчи ва адиб. Т.:1994. – 116.

³⁸ Абулғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 116.

Ko'nglimizdin aytdim, o'la qolsam, kitob aytilmay qolur. Mentek bilur kishi yo'q. Xususan bizning jamoatimizni Yodgorxondin to faqirg'acha yot yurtning kishisi bilmas. O'z xalqimizda hech bilur kishi yo'q. Pas men muni go'rga olib borg'animdin ne foyda aytdim. Taqi to'rt navesandani o'lturtdim. Taqi to Odamdin Jo'chixong'a kelguncha goh ko'hna tarixlarning yuzina boqdim. Goh boqmay aytdim, aning uchun barchasin yod bilur erdim. Shaybanxondin to o'zumga kelguncha hech kitob yuzina boqmadim. O'zumning yodimda bor erdi aytdim»³⁹.

U o'z asarini yozishda bir necha o'nlab tarixiy asarlarni o'rganib tarixiy haqiqat deb topganlarini umumlashtirib yozgan. Bu haqda u asarni yozishga kirishar ekan, uning qo'l ostida 18 ta forsiy va turkiy tillarda yozilgan manba borligini qayd qiladi. Kitobda muallif ulardan faqat ikkitasini: Fazlulloh Rashiddinning «Jome' ut-tavorix»⁴⁰ va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»⁴¹ asarlarini keltiradi. Bundan tashqari, asarning original qismini (8, 9-boblari) yozishda muallif o'zi bilan va so'rab-surishtirib to'plagan ma'lumotlaridan ham kengfoydalangan.

Abulg'ozir Bahodirxon o'tmishdoshlari an'anasini davom ettirib, ulardan ilhomlanib, feodal o'zaro urushlar va uning salbiy oqibatlarini aks ettirdi. Tarixiy voqealarni bayon qilishda ular kabi hikoya va rivoyatlarga murojaat etdi.

Chunonchi, Gulbadanbegim o'zining «Humoyunnoma»⁴² asarida o'zboshimchaliklarni bartaraf qilish va Hindistonni zabt qilish uchun Humoyunning qayta otlanganligini qalamga oladi. Asarda Hindolning o'ldirilishi, Komron ko'zining ko'r qilinishi, Humoyunning buyrug'i bilan Komronning o'ldirilishi kabi tarixiy voqealar Abulg'ozir Bahodirxonning

³⁹ Ўша асар, – 50б.

⁴⁰ Рашидиддин. Жоме ут-тавориҳ. Тошкент: 1995.

⁴¹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент: «Шарқ», 1997.

⁴² Гулбаданбегим. Хумоюннома, С. Азимжонов таржимаси, Т.: «Ўқитувчи», 1997.

«Shajarai turk» asaridagi voqealarga, ya'ni Arabmuhammadxonning ko'r qilib o'ldirilishi, Asfandiyorxon tomonidan

Abulg'ozining Eronga surgun qilinishi, Avg'onning rus podsholigi ixtiyoriga Moskvaga yuborilishi kabi tarixiy voqealar bilan monand keladi. Asosiy masala bu o'xshashlikda emas, balki tarixda takrorlanib turuvchi toj- taxt uchun kurashlarni ilg'or nuqtan nazarda turib qalamga olishda Abulg'oziga Gulbadanbegim an'analariing qo'l kelganligidadir.

Shuningdek, Hofiz Tannsh Buxorayning «Abdullanoma» asari O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda katta o'rin tutadi.

Asar 1534 yildan 1539 yilgacha O'rta Osiyo, Qozog'iston va qisman Afg'oniston va Xurosonda bo'lgan siyosiy voqealarni o'z ichiga oladi. Asarning 56-88- sahifasigacha qadimiy afsonalar o'rin olgan. «Shajarai turk»ning ham 8—88- sahifasida ana shunday voqealar beriladiki, bu jihatdai bu ikki asarning boshlanmasi bir-biriga o'xshab ketadi. Zotan, Abulg'ozining «Shajarai turk» asaridagi Nuh payg'ambar, Olonquva va uning farzandlari haqidagi hikoyalar «Abdullanoma»dagi afsonalarni eslatadi.

Abulg'ozixon asarning 7, 8 va 9-boblarining bir qismini (1644 yilgacha kechgan voqealar tarixini) yozib ulgurgan. 1-6-boblar va 9-bobning davomi (1644—

1664 yil voqealari) Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy tomonidan yozilgan. Uni Mahmud Urganjiy hijriy 1116/1704-05 yili

Xorazmda bosh xon bo'lib turgan «oliysha'n Muso Muhammadxon» buyrug'i bilan kitobga kiritgan. Muso Muhammadxon esa Shohg'oziy ibn Avazg'oziy ibn Sultong'oziy ibn Elbarsxonning o'g'li bo'lgan. Uning nasabiga kelsak, Abulg'oziy quyidagi ma'lumotlarni beradi. Dashti qipchoqlik Elbarsxon 1512-

1513 yillari Xorazmdan safaviylarning noiblari va qo'shinlarini haydab, xon ko'tariladi va qarindoshlaridan amakilarini ham da'vat etib, ularga mamlakat tumanlarini idora etish uchun beradi. Oradan ancha vaqt o'tgach, 1532 yili arzimagan narsa uchun Elbarsxon avlodlari bilan uning amakivachchasi Avanesht sulton va avlod-urug'lari o'rtasida qirg'in-barot urushlar bo'ladi. Oqibatda Elbarsning farzandlari mag'lub bo'lib, barchalari Buxoro, Samarqand va Toshkentga qarindosh shayboniylar huzuriga ketishga majbur bo'ladilar. Ulardan sulton G'oziy ibn Elbars Buxoro xoni Ubaydullohxon ko'magida Xorazmni qisqa vaqtga qaytarib olishidan ham natija chiqmaydi.

2.2 Asarning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati

«Shajarai turk»ning muallifi o'zining asarini sodda va ommabop tilda yozish haqida «Shajarai tarokima»da bayon etgan fikrlarini davom ettiradi. U «Shajarai turk»ni «... turkiy tili bilan aytdum. Turkiyni ham andoq aytubmankim, besh yoshar o'g'lon tushinur»⁴³, deydi. Asarning kompozitsion tuzilishida ham Abulg'ozibayondagi ixchamlikka, ifodaning izchilligiga va voqealarni latifa va rivoya uslubida sodda va jozibali qilib bayon etishga e'tibor bergan. Ba'zan esa muallif, voqealar bayonida turli peyzajlarni tasvirlab, jonli manzaralar yaratadi. Shu bilan birga, u ora-oraga o'z sarguzashtlarini qistirib o'tadi. Bu xususiyatlar «Shajarai turk»ni esdaliklar tipidagi memuar asarlarga, jumladan «Boburnoma»ga yaqinlashtiradi.

Abulg'ozib bu asariga turkman xalqi tarixiga oid tarixiy manba va rivoyatlarni ham, afsona va hikoyatlarni ham iloji boricha kiritishga intilgan. «Shajarai tarokima»ning muallifi o'z asarini sodda, ommabop usul va tilda yozishga alohida e'tibor bergan. Buni uning o'zi ham alohida ta'kidlab, shunday yozgan edi: «Barcha bilishkim, bizdan burun turkiy tarix aytqonlar arabiy lug'atlarni qo'shib

⁴³ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.30.

tururlar va forsiyni ham qo'shib tururlar va turkiyni ham saj' qilib tururlar. O'zlarining hunarlari va ustozliklarini xalqqa ma'lum qilmoq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduk, aning uchun kim bu kitobni o'qug'uchi va tinglag'uchi albatta turk bo'lg'usi turur: bas, turklarga turkona aytmoq kerak, to ularning barchasi fahm qilg'aylar».

Abulg'ozining fikrlari, uning «turkona aytmoqqa» harakat qilishi keyingi tarixiy asarida ham o'z ifodasini topgan. Bu esa Abulg'ozining bevosita jonli tilga murojaat etgani va o'z asarlarini yozayotg'anida «andoq aytmoq kerakkim, yaxshi va yomon borchalari bilib, ko'ngullariga ma'qul bo'lg'oy» degan prinsipga amal qilishga uringanini ko'rsatadi. SHu bilan birga, Abulg'ozi «Shajarai tarokima» asarida turkman xalqi tomonidan ijod qilingan ko'pgina rivoyat va hikoyatlarni, xususan afsonaviy O'g'uz, Dada Ko'rqud haqidagi ertak va dostonlarni yaxshi bilgan kishi sifatida ko'zga tashlanib turadi. Bu esa «Shajarai tarokima» asarining adabiy qiymatini yanada oshiradi.

Abulg'ozi o'z asarining keng tarqalishini ta'minlash va ta'sir kuchini oshirish maqsadida maqol va ertaklardan ijodiy foydalanadi, badiiy tasvir vositalarini ishlatadi. Bularning hammasi «Shajarai turk»ning ma'rifiy ahamiyatini oshiradi, sodda jumlalarda harorat bilan tasvirlangan voqea va xotiralar kishini o'ziga maftun etadi. Masalan, 1622 yilda Xivada ko'tarilgan amaldorlar fitnasi va unga qarshi kurash oqibatini Abulg'ozi quyidagicha eslaydi: «Asfandiyorni so'l va faqirni o'ng qilib erdilar. Ulug' urush bo'ldi. Faqir uch ot yiqilg'uncha urushtum. Barcha xalqdin so'ng ketdum. Qatimda olti kishi bo'ldi. Keyinimdan jov ko'p etdi. Qaytib urushtuk. Ul qirq kishi jov ko'tarila ot soldi, taqi aralasha qoldi... o'zga kishilarimizning har qaysisi har tarafga ketti... Jov qolmay ot qulab kela yurub erdi. Birisi o'q birla og'zimga urdi, egnag'imning suyaklari pora-pora bo'ldi. Og'zim to'la qon bo'ldi. Bir ulug' yilg'inni o'rquldum, jovni ko'zi mani ko'rmay o'zga kishiga tushdi. Shu vaqtda otimning ayoqi

sichqonning iniga kirib, andoq yiqildikim, ottin to‘rt-besh qadam yiroq borib tushtum. Ot turdi, taqi g‘ovg‘odin qochti, yuriyverdi. Qatimdagi kishi manga otini berib o‘zi qoldi. Yosh o‘g‘lon yakka borur erdim»⁴⁴.

Bu parchada fitnani bostirishga qatnashgan Abulg‘ozining holati, kayfiyati ko‘z o‘ngimizda gavdalanadigan darajada jonli ishonarli qilib tasvirlangan.

Tabiat manzaralarini, jang lavhalarini, qilich tovushi, otning dukurlashi va kishilarning hayqirig‘ini tasvirlaganda ishlatilgan so‘zlar ham, badiiy ifoda uslubi ham kitobxonni zavqlantiradi. Asarda kishilarning xulq-atvori ham ixcham, sodda va ravshan aks ettirilgan. Masalan: «Oning oti Jonibek, ul ham beaql kishi erdi, oning o‘g‘li Iskandarxon, ul ham kam aql kishi erdi». Avanishxonning Mahmud Sulton nomli o‘g‘li haqida esa bunday deyiladi: «Ikkinchi o‘g‘lining oti Mahmud edi. Oni sari Mahmud Sulton derlar erdi. Benihoya tentak va g‘ayratsiz va nomussiz va qo‘rqoq kishi erdi».

«Shajarai turk» nasrda yozilgan bo‘lsa ham, unda ba’zi o‘rinlarda biror voqea munosabati bilan bayt va misralar keltiriladi. Asarda ayrim maqollar ham uchraydi. Masalan: «O‘ksuk o‘z kindigin o‘zi kesar», «Otang evin yov chopsa, birga chop», «O‘n darvesh bir palos ustig‘a sig‘ar, ikki podshoh jahonga sig‘mas», «It semirsa egasin qopar» va boshqalar. «Shajarai turk»da saj priyomida yozilgan jumlar ham bor. Masalan: «Menglixon taqi bir necha yillar et *eb*, qimiz *ichib*,... oyday, kunday suluvlarni *quchib*, simobday yo‘rg‘alarni *minib*, ko‘ngli tegan erlarga *uchib*, ul dunyog‘a ketdi»; «O‘rduxon podshoh *bo‘lib*, bir necha yillar araq va qimiz *ichib*, xitoy kimxobni *pichib*, suluvlarni *quchib*, otasi keyinidin ketti» kabilar.

«Shajarayi turk» leksikasining o‘ziga xosligi va bir necha jihatdan eski o‘zbek tili lug‘atlarini to‘ldira olishidadir. Eng avvalo, qo‘llangan so‘zlarning qator yangi ma’nolari e’tiborimizni tortadi. Misol uchun, Buxoro so‘zini olib ko‘raylik.

⁴⁴ Абулғози Баҳодирхон. Шажарай турк. – Toshkent: 1994. – B.168 .

Abulg'oziy Bahodirxon hammaga ma'lum toponim Buxoro so'zining yangi ma'nosini - so'g'dcha «olimlar to'planadigan joy" degan ma'nosini qayd etadi va shunday yozadi: «Xoni kishvarsitonning o'zi Tuluyxon bilan kelgan lashkarni olib, Buxoro tarafiga yurudi. Buxoro temakning ma'nosi mo'g' tilinda ilm va ahli ilmning jam' bo'laturg'on eri temak bo'lur»⁴⁵.

Ma'lumki, ko'p tilshunoslar Buxoro toponimi etimologiyasini sanskritcha buhor// buhopu-- o'quv maskani yoki ziyoratgoh, ibodatxona kabi so'zlar bilan bog'laydilar. Mo'g' tilini bilgan Abulg'oziyxonning bu qaydi alohida diqqatga sazovor. Zero, «madaniy maskan " ma'nosi tarixchilar sharhi bilan uyg'un.

Ma'lumki, peyzaj asar qahramonlarining faoliyat maydonini, ularning xarakterini, insoniy xususiyatlarini ochishda o'ziga xos fon bo'lib xizmat qiladi. Uning ana shu xususiyatini anglagan Abulg'oziy Bahodirxon «Shajarai turk» asarida qahramonlari taqdiri va faoliyatini yoritishda ular ruhiyatiga mos tasvirlar yaratadi. Masalan, Berka Sultonning fojiali o'limi sovuq qish kuni fonida beriladi: «... Sulton (Berkaxon) o'rduda yalang'och yotib erdi, ot oyoqining ovozi keldi. Yalangoyoq kishi po'stinini orqasina solib, yugurub tashqari chiqti. Ko'rdi ersa yovturur. Evi to'qayning ichinda erdi. Eshikning oldinda qamishli ulug' ko'l bor erdi. Kun sovuq erdi. Qamishning ichina yugura berdi. Buznung ustunda bora yurganda oyoqina qamishning cho'giri urdi. Taqi yordi. Qoni hech to'qtamadi. Qoling qamishning ichina bordi. Taki oyoqini po'stin etakina chirmab o'lturdi. SHohbaxtxon qochg'anlarni bir-bir tutib, Berkani izlab va so'rab yuriy erdi. ... Ul kechasi bir barmoqcha kor yog'ib erdi. Bir kishi ovulning chetinda bir yalang oyoqning izin olib, izlab bora erdi. Ko'lga kirgandin so'ng ul kishining oyoqindin buzning ustunga qizil qon oqaberdi. Qonni iz oralab keldi ersa, bir odami kishi kaling qamishning ichinda o'lgurub turur. Muni ko'rdi... Besh-o'n kishi yig'ilib,

⁴⁵ Абулғози Баҳодирхон. Шажарай турк. – Тошкент: 1994. – Б.185 .

¹³ Ўша асар. – Б.73.

tutub Shohbaxtxon oldig'a olib bordilar. Shul zamon Sultonni shahid qilib, evin chovub va talab qaytib eviga ketdi»²⁷.

Shohbaxtxon Berka Sultonni shahid qilishi tasvirlangan bu sahifada muallif o'z qahramonining umri poyoniga etayotganligi, hayoti va shohlik faoliyati tugab borayotganligini bayon etishda tabiat tasvirini zo'r mahorat bilan chizadi. Muallif qahramon fojiasini qish fasli, qattiq sovuq kunida, yalang'och va yalangoyoq yurganda, oppoq qor, qamishlari qalin va kuyuq ko'l manzarasi fonida tasvirlaydi. Berkaxonning fojiali o'limi tasvirini o'qigan kitobxon muallifning peyzaj tasvirini chizishdagi mahoratiga qoyil qoladi. Tasvirda Berkaxonning oyog'idan oppoq qorga oqqan qip-qizil qon voqea mohiyatini ochishda ma'lum bir detal vazifasini o'taydi.

Abulg'ozii o'zi yashagan davr voqealari tasvirigacha uchraydigan peyzaj chizgilarini badiiy-bo'yoqdor to'qimalar bilan tasvirlaydi, o'z davri voqealari bayonida keltirilgan peyzaj lavhalari esa o'ziga xos realistik mohiyat kasb etadi. Chunonchi, otasi (Arabmuhammad) bilan bog'liq voqealarni bayon qilishda ajoyib tabiat manzarasini chizadi: «Ul vaqtda Mazdehkon qal'asindin to Baqirg'anning beri yuzi Qo'yg'un tegan ergacha bug'doy ekilur erdi. Bizning Xon Tuk qal'asining yuqorisindin bir ariq qazdurub tururlar, faqir dunyog'a kelmasdin bir yil burun. Mezon bo'lg'onda saqasini ko'marlar erdi. Bug'doyni o'rg'on vaqtda ocharlar erdi Bir necha yildin so'ng ariqning kengligi otqan o'q o'tmasday bo'ldi Suvning oyoqi Quyg'un bordi. Andin Achi tengiziga bordi. Yolg'uz bug'doy ekilur erdi. Otli kishi o'n kunda bug'doyning toshindin aylanib kela bilmas erdi». Bu tasvir orqali XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida Xorazmdagi dehqonchilik, bug'doyning ko'p bo'lganligi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Tasvirni o'qib, oxiri ko'rinmagan ko'm-ko'k bug'doyzorni, bir o'q otimiga teng keladigan katta suv kanalini ko'z oldimizga keltiramiz. Juda sodda ranglar (so'zlar) bilan chizilgan bu peyzaj asarga o'ziga xos joziba baxsh etgan.

Abulg'ozī o'zini birinchi tarixiy asari bo'lgan «Shajarai tarokima»da saj usulini qo'llamaganini uqtirgan bo'lsa ham, lekin u tarixiy solnomalarning an'analari, ulardagi «musajja'» «murajjaz», «ori»lar hamda xalq og'zaki ijodiyotining ta'siri natijasida o'zining «Shajarai turk» asarida joy joyi bilan beixtiyor saj usulini ishlatadiki, bu hol asarning ravonligini va musiqiyligini oshirishga yordam bergan.

Shunday qilib, «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlarini yaratgan Abulg'ozī o'rta asr tarixchiligiga o'z hissasini qo'shgan XVII asrning bilimdon siymolaridan biridir. Agar uning tibbiyotga, doir «Manofe'ul-inson» risolasi va o'zining «bag'oyat ash'orfahm»ligi ham e'tiborga olinsa, Abulg'ozining o'z davri- ning keng bilimli kishisi bo'lganligi yaqqol namoyon bo'ladi.

2.3 «Shajarai turk» asari badiiy kompozitsion asar sifatida

Asarda turk-mo'g'ul qabilalari, xususan, ular nomlari, etimologiyasi, urf-odatlar haqidagi etnografik ma'lumotlar keltirilgan. Bunda o'zbeklar, sartlar hamda turkman urug'lari (sariq, yovmut, qizil ayoq, ersari va h) haqidagi ma'lumotlar xam o'ta muhimdir. Jumladan, u turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod

(bo'g'in)ni tashkil qiladi degan. Bular: uyg'ur, qang'li/qiniqli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. Shunisi e'tiborga molikki, muallif urug', qabilalarning nomlarini keltirar ekan, ularning hududiy jihatdan joylashish o'rni haqida ham ma'lumot beradi: «Qalach – O'g'uz o'g'lonlari turkmanlardan ayrilmay Movarounnahr va Xurosonga tushdilar. Qipchoq – Tin va Atil va Yoyiq; bu aytilgan suvlarning orasida o'lturdilar. Qiniqli – turkmanlar bilan birga o'lturur erdilar. Turkman viloyatga tushgandin so'ng, Issiqko'l va Chu va Talosh; bu aytilg'an suvlarning yoqalarida vatan qilib ko'p yillar o'lturdilar»⁴⁶. So'ngra u boshqa turkiy qabila va urug'lar haqida to'xtab o'tadi:

⁴⁶ Абулғозий. Шажарай турк.Т.: «Чўлпон», 1992. – 316.

1. Takrin yoki makrin; 2. Qirg'izlar; 3. Kamkamchutlar; 4. O'rmanqit; 5. Tatarlar; 6. O'yrat/oyrat 7. Tumat urug'i; 8. Nayman; 9. Qirayt 10. Ungut; 11. Xitoy; 12. Turqat 13. Mo'g'ul urug'lari; 14. Markit/makrit; 15. Qo'nqirat; 16. Inkiras; 17. Alqanut; 18. Qoranut; 19. Qurlas va Echkin; 20. O'rmanvut; 21. Qo'niqqimar; 22. Arlat; 23. Kilgit; 24. Baday va qishliq urug'lari; 25. Uyshan; 26. Sulduz; 27. Ilkurkin; 28. Kankit; 29. Do'rman; 30. Barin va suqut; 31. O'klan. 32. Bayovut; 33. Jalayir urug'larining nomlarining kelib chiqishi hamda hududiy o'rnini keltirgan. Abulg'oziy Bahodirxon o'z kitobida mo'g'ullarni ikki katta bo'lakka bo'ladi. Biri qiyon/qiyot (nirun), ikkinchisi nuguz/nukuz (darlikin). Bulardan tashqari, mo'g'ullardan 25 ta urug' va qabilalarini tilga oladiki, ulardan barisi o'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan⁴⁷.

O'zbeklarning urug' va qabilalariga tegishli ma'lumotlardan asarda keltirilgan urug' va qabilalar nomi juda muhim. Bular: Orlot/arlat, og'or, olayunotli, o'qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho'bichoq, cho'boni, chig'atoy, cho'ni, xizir eli, xurosonli, xalaj, dukar, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuq, sultonli, savroqi, sovchili, qo'rg'oli, qo'rqin, qorliq, qipchoq, qoratoshli, qalmoq, qirg'iz, chiroyli, qutlar, lola, mo'g'ul, mang'it, nayman, mo'ndi, yozir, yag'mo, yovmut, yurti va b⁸².

O'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid ma'lumotlar orasida Xorazmning o'sha zamonlarda ham obod bo'lganligi, Amudaryo o'zanining o'zgargan vaqti va uning oqibatlari haqidagi ma'lumotlar ham qimmatlidir. Jumladan, Xiva xonligida yashovchi xalqning turmushi, yashash sharoiti, faoliyati bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, xonlikdagi tanazzulning asosiy sabablaridan biri xonlik aholisi nafaqat etnik, balki

⁴⁷ Булар: меркит, кўнғирот, қоранут, қурлос, элчигин, урмовут/уймовут, кўникмар, арлот, келкит, бодай/бадай, қилик, уйшун, сулдус/сулдуз, элдуркин/илдуркин, кенкит, дўрбан/дўрман, барин/бахрин, сукут, қурловут, бурқут, уклан/ўклан, журот, хожарот, бойвут, жалойир. ⁸² Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Б. 35.

madaniy-iqtisodiy munosabatlarda ham bir-biridan keskin farq qiluvchi uch guruhga bo'linganligi, xonlikdagi o'zaro ichki qarama-qarshiliklarni kuchaytirgansabablardan biri shu ekanligini ta'kidlaydi.

Jumladan, shahar hamda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qishloqlar aholisi Xorazmda qadimdan yashovchi xalq avlodlari hisoblangan. Ular asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Ikkinchi muhim etnik guruh turkman qabilalari bo'lib, ular xonlikning g'arbiy va janubiy qismlarida yashashgan, hamda asosan chorvachilik va qisman dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Turkmanlar ko'plab urug' va qabilalarga bo'linganligi sababli yagona kuch sifatida harakat qila olmaganlar va XVI asrda xonlikka bo'ysundirilganlar. Turkmanlarning qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar doirasiga kiritilishi turkman qabilalarida ichki aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Bu jarayon turkman amaldorlarini Xiva xonlari xizmatiga o'tishini tezlashtirdi, natijada turkman qabilalarining tarqoqligi yanada kuchaydi.

Elbarsxon bilan Xorazmga ko'chib o'tgan o'zbeklar uchinchi etnik guruhni tashkil qilib, ular ko'chmanchi hayot tarzini va qabila hamda urug'larga bo'linishni saqlab qoldi.

«Shajarai turk»da XVI-XVII asrlarga oid xalq tarixining juda ko'p tomonlari haqida ma'lumot beriladi. Muallif xonliklar o'rtasidagi talonchilik urushlari yoki yaqin qarindoshlar orasida yuz bergan toju-taxt uchun ziddiyatli kurashlarni tasvirlar ekan, bu kurashlarda mehnatkash xalqning hal qiluvchi roli borligini ta'kidlaydi. Shuningdek, xalqning tez-tez bo'lib turgan qonli to'qnashuvlar tufayli vujudga kelgan ayanchli turmush manzarasi tasvirlanadi. Elbarsxon vafot etgach, o'sha davr taomili bo'yicha xonlik taxtiga Yodgorxon nabiralarning to'ng'ichi Belikach sultonning o'g'li Sultong'ozi, uning vafotidan so'ng esa Abulakxonning o'g'li Xasanquli o'tirdi. Shundan so'ng Elbarsxon va Belikach sultonlarning o'g'illari birlashib Urganchga Xasanquli

ustiga yurish qiladi va Urganch qamal qilinadi. Bu haqida asarda shunday deyiladi: «Urganch ulug' shahr. Tez-o'q qahatlik bo'la qoldi. Bir eshakning kallasi qirq-ellik tanga bo'ldi topilmadi. Chig'iriq desa Urganch sartlarining achchig'i kelur. Aning ma'nosi ul tururkim, Urganchning mullolar tegan jamoati bo'lur. Ularning bir davlatmand yaxshi kishisi bor edi. Ul eviga kirib borsa ko'rarkim mullolarning oqsoqolliklarindin besh-olti kishi o'lturub turur. Ev egasi eshakning zakarini tabaqq'a solib yilqining o'gurgan qazisin to'g'ragandek chig'iriq-chig'iriq to'g'ray turur. Xalqning ahvoli ikki oyda shundaq bo'ldi. Andin so'nggisin mundin qiyos qiling»⁴⁸. Bunda oddiy xalq o'zaro urushlar vaqtida qanchalik qiyin ahvolga tushishi yoritilganining guvohi bo'lish mumkin. Urganchning o'tmishdagi qahatchiligi va undagi xalqlarning ochlikdan o'lar holatga kelganliklari haqida Urganch qo'rg'oni qamal qilinganda odamlar ochlikdan o'lmaslik uchun eshak, it go'shtlarini yeyishga majbur bo'lganliklari Muhammad Solih ham o'zining «Shayboniynoma»⁴⁹⁵⁰ dostonida tasdiqlaydi.

Xonlikda mavjud soliqlar haqida asarning So'fiyonxon hukmronligi davri qismida keltirilgan. So'fiyonxon Abulxonda yashovchi turkman qabilalariga odam yuborib, «Tangri buyuruqinda zakot bermak farz turur. Har yilda mollarindin zakot bersunlar. Men kishi yuborib chopturmayin»⁸⁵ deb odam yuboradi. Turkmanlar xonga itoat qildilar va har yili o'zlarining mulklaridan zakot berib turdilar. Bunda katta urug'larga bir kishi va 2-3 ta kichik urug'larga bir kishi jami qirqta soliq yig'uvchi yuborilgan. Ular bir necha yil davomida soliqlarni vaqtida to'laydilar, ammo bir kuni xonga itoat qilishdan bosh tortib, soliq yig'uvchilarni o'ldiradilar. Xon ularni jazolashga qaror qiladi va Abulxonga boradi. So'fiyonxon qo'shinidan qochgan turkmanlar Cho'takka

⁴⁸ Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 1256.

⁴⁹ Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Т.:1961. – 3216.

⁵⁰ Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 1266.

yashiringanlar. Xon o'z qo'shinlari bilan Cho'takni qamal qiladi. Qamalda qolganlar Oqatoyxonga itoat etishga majbur bo'ladi.

Xon ularga har bir o'ldirilgan odam uchun ming qo'ydan qirq ming qo'y soliq belgilagan. Soliqni xonga itoat etmagan taka, yovmud, sariq, va ersarilar to'laganlar. Bu voqeadan bir necha yil o'tgandan keyin bu soliq jon boshiga va chorvasining miqdoriga qarab boshqa turkmanlarga ham joriy qilindi: «turkmanlarning boshlarina va mollarina loyiq mol beraturg'an turkmanlarning boshining, molining yuzindin hisob qilib, ichki salurg'a o'n olti ming qo'y, mundin boshqa podshohliq shilanda so'ymoq uchun ming olti yuz do'nan qo'y». Bunda keyingi soliq «qozon qo'yi», o'n olti ming qo'yga «barot qo'yi» deb nom berilgan⁵¹. Igdil va chovuldur urug'lari 12 ming, ushoq urug'i 4 ming, ko'klanga 12 ming barot, ming ikki yuz qozon qo'yi, adaqlig'a 12 ming barot qo'yi va ming ikki yuz qozon qo'yi to'lagan. Bunda «Barot qo'yi» solig'i navkarlar hisobiga, «qozon qo'yi» solig'i esa xon saroyiga olib ketilgan. Bu davrda urganchdan Abulxonga o'tish bir ovuldan ikkinchisiga o'tishga teng edi, chunki Amudaryo Urganch qal'asidan Abulxon tog'ining sharqiy tomoniga qarab oqar edi. O'sha joydan O'g'argacha o'tib Mozandaron (Kaspiy) dengiziga quyilgan. o'sha davrda Amudaryoning har ikki tomoni bo'ylab ekinzorlar bo'lgan, bu yerda ko'plab mevali daraxtlar, uzumzorlar bo'lgan. Baland yerlarga chig'iriqlar qurilgan⁵².

Xonlik aholisi asosan qishloq xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilikda g'alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirilgan. Jumladan, asarda ma'lumot berilishicha, ekinzorlarga asosan g'alla ekilib, ayniqsa kuzgi bug'doy ekish yetakchi o'rin egallagan. Bu haqida asarda quyidagicha yoziladi: «Ul vaqtda Mazdehqon qal'asindin to

⁵¹ Бу солиқларнинг умумий миқдори 58 минг 800 қўйни ташкил қилган.

⁵² Абуғозий. Шажарайи турк. Т.: «Чўлпон», 1992. – 126б. ⁸⁸ Ўша асар. – 161-162б.

Baqirg'anning beri yuzi Quyg'un tegan yergacha bug'doy ekilur erdi. Bizning xon (Arab Muhammadxon) Tuk qal'asining yuqorisidin bir ariq qazdurub tururlar. Faqir dunyog'a kelmasdin bir yil burun. Me'zon bo'lg'anda saqasini ko'marlar erdi. Bug'doyni o'rg'an vaqtda ocharlar erdi. Bir necha yildin so'ng ariqning kengligi otqan o'q o'tmasday bo'ldi. Suvning oyoqi Quyg'un bordi. Yolg'uz bug'doy ekilur erdi. Otli kishi o'n kunda bug'doyning toshindan aylanib kela bilmas erdi. Ul vaqtda pul-puchak, yarim misqol ko'mush birtanga yerina yurur erdi.⁸⁸ Bir tangaga yarim teva yuki bug'doy berurlar erdi. Bir misqol ko'mushga bir xarvor bug'doy berurlar erdi». Bundan Arabmuhammadxon davrida Tuk qal'asining yuqori qismidan kanal o'tkazilgani, bu bilan juda keng hududlarning sug'orilganligi haqida bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Dehqonlar me'zon oylarida bug'doy ekkanlar va o'rimdan so'ng u yerga suv quyganlar. Bu orqali ular bug'doydan hosilini ko'proq olganlar. Abulg'ozixon bir necha yillarda kanal suvi katta oqimga aylanganligi hamda tabiiyki ekin yerlari ham kengangayligini, natijada bug'doyning narxi ancha arzonlashganini alohida ta'kidlagan. Bundan tashqari, yuqoridagi parcha orqali o'sha davrdagi pul muomalasi haqida ham ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin, ya'ni muallifning yozishicha, yarim misqol kumush bir tanga miqdoriga teng bo'lgan. Bir misqol kumushga bir eshak yuki og'irligida, bir tangaga esa, bir tuya yuki og'irligida bug'doy olish mumkin edi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, xonlikdagi siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashgan Arabmuhammadxon davrida ham sug'orish inshootlari qurilishiga, xalq hayoti, turmush darajasining yaxshilanishiga e'tibor qaratilgan.

Bu davrda sug'orish inshootlari qurilishining asosiy sababi, o'sha davrda sug'orish tizimining o'zgarganligi bo'ldi: Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirib, eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylanadi. Bu haqida muallif: «Biz dunyog'a kelmasdin o'ttuz yil ilgari Amu suvi, xost kinorasining yuqorisini Qora ayg'ir

to'qayi derlar, ul yerdin yo'l yasab oqib, Tuk qal'asina borib, Sir dengizina qo'yg'an erkandur. Ul sababdin Urganch cho'l bo'lubti. Ra'iyat Urganch cho'l ham bo'lsa o'lturub, xon boshliq sipoh xalqi yoz Amu suvining yoqasida munosib yerlarda ekin ekib o'lturub, ekinni olg'andin so'ng Urganch borurlar erkandur»⁵³. Demak, Amudaryo o'zanining o'zgarganligi (1573) sabab, Urganch cho'lga aylanadi. Natijada bu yerda dehqonchilik bilan shug'ullanishning imkoni bo'lmaydi va aholi daryo yoqasida ekin ekib, uni o'rgach Urganchga qaytadi. Bundan aholining bu davrda ham to'la o'troqlashmaganligi ma'lum bo'ladi.

Xonligida suv tanqisligi aholining katta qismini tashkil qilgan chorvadorlar hayotiga ham ta'sir etmay qolmadi. Bu haqida: «Bahor qo'y qo'zilar. Xevaqa o't bo'lmas. Rang chiqar. Xevaqa turkmani qumg'a ketar.

Sart ekin ekmak uchun kendli kendina ketar»⁵⁴.

Aholi orasida ruhoniylar alohida mavqega ega edilar. Darvish shayxlari Xivadagi ta'sirlaridan foydalanib, xonlar o'rtasidagi kurashlarda faol qatnashganlar. Bu haqida Abulg'ozixon shunday yozadi: «Bakirg'an ostonasinda Sayid ota avlodindin bir kishi bor erdi, Nazar xoja derlar erdi. Elbars sulton aning qizin oldi... Shul kunlar xalqning barchasi o'tlanib Asfandiyor sultonning kelganini yaxshi bo'ldi, otasini bilmagan zolimlardan xudoy qutqazdi, deb guruh-guruh Asfandiyor sultong'a kela erkandur... Piyoda va otli o'tmasdan Asfandiyor sultong'a ko'makka kelaturg'an kishining va ba'zisini so'z birlan va ba'zisini zo'r birlan o'zini qo'shub aytibdur. «Xudoy ko'rsatmasin Asfandiyor sulton yurt olsa erkagingizni o'lturur va urg'achingizni Abulxon va Manqishloq turkmaniga buyurur. Ul o'lja qilib olib ketar. Agar mening bu so'zimda yolg'on bo'lsa, tangrining kalomi ursin meni»-

⁵³ Ўша асар, 1676.

⁵⁴ Ўша асар, 1726.

⁹¹ Ўша асар, 1646.

teb, har kishining oldinda Qur'ondan bir ont ichibdur. Asfandiyor sultong'a kelaturg'an kishining barchasini qatig'a yig'di-da oldi. O'g'lonushoqini turkman o'lja etar teb ond ichgandin so'ng, qo'rqi... Bir oqsaqolli sayid har kunda Qur'ondin yuz karrat ont ichsa, men sizlarning g'amingizni yeyman tesa kim inonmas»⁹¹. Bunda Abulg'ozixon otasiga qarshi isyon ko'targan Habash Sulton va Elbars Sultonlar Shayx Sayid ota avlodidan hisoblangan shayx Nazar xoja 1622-yilda Arab Muhammadxonning o'g'illarini otasiga qarshi kurashda qo'llab quvvatlaydi, hamda xalqni ham o'ziga ergashtirishga erishadi. Natijada Habash sulton va Elbars sultonlarga qarshi kurashga chog'langan xalq Nazar hojiga ergashadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar ushbu asarning yaxlit kompozitsion asar ekanligini tasdiqlab turibdi

Xulosa

Yuqoridagilardan Abulg'oz Bahodirxon va «Shajarai turk» asarining Xiva xonligi tarixini yoritishdagi ahamiyati, shuningdek Xorazm madaniyati tarixidagi o'rni va adabiyotshunosligimizdagi o'rni haqida shunday xulosa qilishimiz mumkin:

1. Muallif «Shajarai turk» asarini yaratish jarayonida turli uydirma va soxtaliklarga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Shu ma'noda, o'zigacha bo'lgan davr tarixini yozishda bir necha o'nlab tarixiy asarlarni o'rganib, faqat tarixiy haqiqat deb bilgan hodisalarnigina asarga kiritadi.

Rashididdinning «Jome ut-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari bunda alohida ta'kidlab o'tiladi.

2. Abulg'ozixon asarning asosiy qismi, ya'ni o'zi yashagan davr tarixini yozishda qarindoshlar o'rtasidagi kurashlarni ham, o'zining surgunlikdagi davrlarini ham g'alaba va mag'lubiyatlarini ham ochiq bayon etishga harakat qiladi. Bu hijatdan, olimlar uni Zahiriddin Muhammad Boburga qiyoslaydilar.

Chunki, Abulg'ozi Bahodirxon ham avvalo hukmdor edi. Bu esa, unga mutlaq ijod erkinligi uchun imkon yaratdi. U saroy rasmiy arboblarga itoat etishi, qat'iy shakllangan an'anaviy uslub iskanjasida ijod etishi shart bo'lmagan. Uning asarni yozishdan asosiy maqsadi, boshqa tarixchilardan farqli o'laroq ma'lum bir hukmdor davrini ulug'lash emas, balki tarixning yozilmay qolgan qismini to'ldirib keyingi avlodga yetkazishdan iborat edi. Shuning uchun ham, muallif tarixiy voqyea hodisalarni sodda, tushunarli, ixcham til birliklari orqali bayon etadi.

Shuningdek, «Boburnoma» Andijon shevasida yozilgan bo'lsa, «Shajarai turk» Xorazm shevasida yozildi. Bu haqida uning ilmiy faoliyati bilan tanishgan venger sharqshunos olimi G.Vamberi: «Abulg'ozi Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi... Jahon uning «Shajarai turka asari uchun undan minnatdordir»⁵⁵ degan edi.

3. Shuningdek, o'zining «Shajarai turk» asari bilan Abulg'ozixon Xorazm tarixnavislik maktabiga asos soldi. Keyingi xorazmlik ijodkorlar Munis, Ogahiy va Bayoniylar Abulg'ozining ilg'or an'analarini rivojlantirib, yangi tarix asarlarini yaratdilar. XIX asrda Munis tomonidan boshlanib, Ogahiy tomonidan yozib tamomlangan «Firdavs ul-iqbol» shubhasiz, Abulg'ozixon boshlagan an'analar ta'sirida, undan foydalanib yozilgan tarixiy asar hisoblanadi. Zero bu tarixchilar o'zlarigacha bo'lgan tarixni bayon etishda ko'proq Abulg'ozi Bahodirxon asarlariga tayanganlar.

Mazkur asar Abulg'ozixonni tarixchi olim sifatida olamga tanitdi. U XVIII asrdan Yevropa tillariga tarjima qilina boshlandi. Nihoyat, 1992 yilda asar hozirgi zamon imlosida B.Ahmedovning so'z boshisi, mas'ul muharrirligida nashr etildi.

⁵⁵ Вамбери Г.А. История Бухары или Маварауннагра. Том I. М.: 1964, 115б.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOSIY ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Ватансаждагоҳкабимуқаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
3. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008.
5. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
7. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

II. MANBALAR:

1. Абулғозий. Шажарайи турк. Тошкент: Чўлпон, 1992.
2. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. Самарқанд: 1995. – 72б.
3. Баёний. Шажарайи хоразмшоҳий. Тошкент: 1994.-Б. 49.

4.Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560гг. Английские путешествие в Московском государстве в XVI веке. Перевод с английского Л.Готье. Л.:1932.

III. ILMIIY-NAZARIY ADABIYOTLAR:

1. АбдуллаевВ.А. Ўзбекадабиётитарихи. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
2. АбдурасуловА. Хива. Тарихий-этнографикочерклар.Тошкент: 1997.
3. АдизоваИ. Ўзбекмумтозадабиётитарихи. Ўқувқўлланма. – Тошкент: Фан, 2008.
4. АбдуллаеваМ.Д. «Бобурнома» ва «Шажараитурк»нингқиёсийтипологиктаҳлили. Авт-т, ф.ф.номз. Самарқанд: 2004. -22б.
5. АбдуллаеваМ. «Шажараитурк»дапейзаж. Ўзбектиливаадабиёти, 2008, 4-сон.
6. Абдуллаева М.Д. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий типологик таҳлили. Авт-т, ф.ф.номз. Самарқанд: 2004. -22б.
7. Агзамова Г.А. XVI-XIX аср биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти. Тарих фан.ном.дисс. Т.: 2000.
8. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент:«Шарк», 2001.
9. Аллаева Н.А. Взаимосвязи Хивинского ханства с Ираном в XVI-XVII вв. Авт-т канд.ист. наук. Тошкент: 2007. – 30с.

10. Жумахўжа Н. Адизова И. Сўздинбақолироқёдгорйўқдур. Тошкент: Ўзбекистон, 1995.
11. Каримов Ғ., Долимов С. Муҳаммадризо Огаҳий. Сўз боши. Асарлар. 6 жилдлик, 1-жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
12. Комилов Н. Бу қадимий санъат. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
13. Мамадлиева Н. «Шажарайи турк» асари лексикаси ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3-сон.
14. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. I китоб. Тошкент: «Ўқитувчи», 1963.
15. Маънавият юлдузлари. Муаллифлар жамоаси. Тошкент: «Маънавият», 2001.
16. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
17. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Фан, 1971.
18. Рахманова Ю.М. Хива шаҳри Абулғози Баҳодирхон ҳукмронлиги даврида. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Урганч: 2006. – 8-9б.
19. Тарроҳ Б. Хоразм навозандалари. – Тошкент: 1991.
20. Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. -Т.: 2001.
21. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. Илмий-назарий анжуман материаллари. Т.: 1997.
22. Хива – минг гумбаз шаҳри. Масъул муҳаррир: А.Азизхўжаев Т.: «Шарқ», 1997. – 108б.
23. Хоразм тарихи. I жилд. Муаллифлар жамоаси. Урганч, 1997.
24. Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. Тошкент: 2007.

25. Худойназаров Х. «Шажарай турк» ва унинг ўрганилиши. Тошкент: «Ўқитувчи», 1993. +
26. Худойназаров Х. Абулғози Баходирхон тарихчи ва адиб. Тошкент: «Ўзбекистон», 1994.
27. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент: «Фан», 1964. – 436б.
28. Толстов С.П. Древний Хорезм. Москва: 1948.
29. Юнусов М. Барҳаётанъаналар. Тошкент: 1969.
30. Ғаффоров Ш.С., Нарманов Ф.А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Услубий кўрсатма. Самарқанд: СамДУ нашр., 2013. -75.

IV. Gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar:

31. Абдуллаева М.Д. «Бобурнома» ва «Шажарай турк»нинг қиёсий типологик таҳлили.// Ҳозирги давр тил ва адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. – 33-38б.
32. Абдуллаева М.Д. Бобур ва Абулғози. // Мулоқот. Тошкент: 2003. 3334б.
33. Агзамова Г.А. Хиванинг хонлик пойтахтига айланишига доир айрим маълумотлар.// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т.: 1997. №6-7. – 84-87б.
34. Аллаева Н.А. Хива хонлиги ва Эрон ўртасида савдо алоқалари тарихидан. // Ўзбекистон тарихи. Тошкент: 2007. № 1.
35. Аллаева Н.А. Абулғозихон ҳақида яна бир сўз.// Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2006. №3
36. Матякубова М., Абдуллаев Ў. Хоразмда шажаравий тарихнавислик мактаби. Турон тарихи. –Т.: 2005.

37.Матякубова М. XVI асрда Хива хонлиги. Маърифат ёғдуси. –
Урганч.2007.

38.Қодиров Р. Алимова Р. Аждодларимиз ҳикояси.//Ўзбекистон
адабиёти ва санъати.Тошкент: №17, 24- апрел.